

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**VOYAGA YETMAGANLARNING
HUQUQLARI, MAJBURIYATLARI
VA JAVOBGARLIGI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist, yuridik fanlar doktori,
professor M.H.RUSTAMBOYEV va yuridik fanlar doktori,
professor I.B.ZOKIROVning umumiy tahriri ostida

Voyaga yetmaganlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi. O'quv qo'llanma. —T.: «Aloqachi» nashriyoti, 2010, 96 bet.

Mazkur o'quv qo'llanma Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligi doirasida bajarilgan loyiha bo'lib, unda voyaga yetmaganlarning fuqarolik huquq va muomalaga layoqatining o'ziga xos jihatlari, voyaga yetmaganlarning mehnat qilish huquqi va uni amalga oshirish, voyaga yetmaganlarning oilaviy munosabatlarda ishtirok etishi, ularning tadbirkorlik faoliyatidagi ishtiroki, shuningdek, voyaga yetmaganlarning huquqbuzarligi va buning uchun ma'muriy hamda jinoiy javobgarlik masalalari milliy hamda xalqaro huquq normalari asosida qiyozi tahlil usulida yoritilgan.

O'quv qo'llanma o'rta maktablar, akademik litseylar, oily o'quv yurtlari va voyaga yetmagan shaxslarning huquqiy holatiga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

BBK 67.404я7

Mualliflar jamoasi:

Karaxodjayeva Dilorom Mamirovna, yu.f.d., prof.; Baratov Mirodil Homudjonovich, yu.f.d.; Usmanova Muborak Akmaljanovna, yu.f.d.; Tursunov Yo'ldoshali, yu.f.n.; Yuldasheva Shoira Rahmatovna, yu.f.n.; Shoraxmetova Umida Shoakbarovna, yu.f.n.; Oqyulov Omanbay, yu.f.d., prof.; Xodjayev Baxshillo Kamolovich, yu.f.n.; Li Adik Aleksandrovich, yu.f.n.; Xojiyev Erkin Tuyg'unovich, yu.f.n.; Ahrarov Baxrom Djabborovich, yu.f.d.

Mas'ul muharrir: D.M.KARAXODJAYEVA – yu.f.d.

Taqrizchilar: **Q.R.ABDURASULOVA** – yu.f.d., professor;
 B.N. TOSHEV – yu.f.n., dostsent.

ISBN 978-9943-326-58-3

© «Aloqachi» nashriyoti, 2010-y.

KIRISH

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlaming barchasi inson va uning manfaatlari uchun yo'naltirilganligi nafaqat qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, balki amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning asl maqsadi ekanligi b archamizga ma'lum. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, biz sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlik emas, balki sharqona odob-axloq va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonlarni tushunamiz. Oliy Majlis bu borada davr talablariga javob beradigan, eng qulay, ilg'or tajribalarga tayangan va uzviy bog'liq bo'lgan qator qonunlar qabul qilishi kerak¹.

Ta'kidlash lozimki, mustaqillikka erishganimizdan so'ng, bozor munosabatlari sharoitida fuqarolarning iqtisodiy, siyosiy va sotsial munosabatlardagi ishtiroklari doirasi ancha kengaydi. Huquqiy munosabatlarda nafaqat voyaga etgan fuqarolar, balki 18 yoshga to'limgan voyaga yetmaganlar ham o'zlarining subyektlilik maqomidan foydalanib ishtirok etishlari mumkin. Bu ishtiroknki ta'minlash uchun hukumat tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yillarga nom berishda aynan sog'lom kelajak avlod — yoshlarga, ayniqsa, voyaga yetmagan bolalarga katta e'tibor berayotganligi yuqorida fikrlarimizning yorqin dalilidir. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan islohotlaming mantiqiy davomi sisfatida 2010 yilni «Barkamol avlod yili» deb e'lon qilinishi va hukumatning maxsus dasturlar qabul qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ I.A.Karimov. O'zbekiston siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy istiqbolining asosiy tarmoyilari. —T.: «O'zbekiston», 1997. -137 b.

Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar 10 million 360 ming nafarni yoki umumiy aholining taxminan 40 foizini tashkil etadi¹.

«Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi» qabul qilin-ganligining oltmis yilligi munosabati bilan yozilgan ushbu o'quv qo'llanma barcha huquq sohalarida, jumladan, fuqarolik huquqi, oila huquqi, ijtimoiy ta'minot va mehnat huquqi, xo'jalik (tadbirkorik) huquqi, ma'muriy huquq va jinoyat huquqi predmeti doirasida huquqiy munosabatlarda voyaga yetmaganlarning ishtiroki, ularning huquq va majburiyatlari, javobgarligi mazkur deklarasiyada belgilangan huquq va erkinliklarni belgilovchi normalar mazmunidan kelib chiqib yoritib berildi.

Mazkur o'quv qo'llanma «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi» va voyaga yetmaganlarga aloqador boshqa xalqaro normativ hujjatlar bilan birligida, amaldagi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmon, qaror va far moyishlari hamda boshqa normativ hujjatlar asosida yozilgan.

¹ I.A.Karimov. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir // Xalq so'zi. 2007-yil 8-dekabr.

I bob. FUQAROLIK QONUNCHILIGI VA INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASIDA VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQ VA MUOMALA LAYOQATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Aziz bolajonlar, 1991-yil 31-avgust sanasi biz uchun qanday sana, bayram ekanligini juda yaxshi bilasiz. Bu yil mustaqil davlatimiz 19 yoshga to'ldi. Yosh davlat ham misoli bir yosh oiladek gap. Oila to shakllanib, iqtisodiy mustaqillikka erishguniga qadar ma'lum davr kerak bo'ladi. Bu davr mobaynida oila o'z kelajagi uchun qayg'uradi, oila a'zolari yelib, yuguradi. Bu ishlar puxta o'ylangan, muayyan reja asosiga quriladi. Bu rejalar, aytish mumkin bo'lsa, islohotlar rejasi hisoblanadi. Shu ma'noda O'zbekistonimizda ham bugungi kunda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda va eng muhimmi, islohotlarning maqsadi inson va uning manfaatlari uchun yo'naltirilgandir.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda nafaqat fuqarolik muomala layoqatiga ega bo'lgan fuqarolar, balki 18 yoshga to'lmagan, voyaga yetmaganlar ham o'zlarining fuqarolik subyektlilik maqomidan foydalanib ishtirok etishlari mumkinligi esa, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yoshlarning o'rni alohida ekanligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlар 10 million 360 ming nafarni yoki umumiy aholining taxminan 40 foizini tashkil etadi¹.

Yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida 2010 yilni yurtimizda

¹ I.A. Karimov. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir. –T.: «O'zbekiston», 2007. -36 b.

«Barkamol avlod yili» deb e'lon qilinishi va hukumatning maxsus dasturlari qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, biz sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlik emas, balki sharqona odobaxloq va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonlarni tushunamiz. Oliy Majlis bu borada davr talablariga javob beradigan, eng qulay, ilg'or tajribalarga tayangan va uzviy bog'liq bo'lgan qator qonunlar qabul qilishi kerak¹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 45-moddasida «Voyaga yetmaganlar huquqlari davlat himoyasidadir», deb belgilanishi, bu boradagi davlat himoyasining huquqiy poydevorini yaratish va jamiyatimizdagi siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy o'zgarishlar voyaga yetmagan shaxslarga oid ijtimoiy huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlarni ishlab chiqish jarayonini jadallashtirishga olib keldi. Bu sohadagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish vazifasiga ega bo'lgan «O'zbekiston Respublikasi davlat yoshlar siyosati asoslari to'g'risida»gi 1991-yil 20-noyabrda qabul qilingan qonunning² mantiqiy davomi sifatida 2008-yil 7-yanvarda «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonun qabul qilindi³.

Hayotimizning salmoqli qismini egallaydigan fuqarolik-huquqiy munosabatlarni mamlakatimizda yuqoridagi qonun hujjatlaridan tashqari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi ham tartibga soladi va mustahkamlaydi. Ushbu munosabatlarning markaziy ishtirokchisi bo'lgan fuqaro (jismoniy shaxs) tushunchasi aynan mazkur qonun hujjatida berilgan. Unga ko'ra, fuqarolar (jismoniy shaxslar) deganda, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo'limgan shaxslar tushuniladi.

¹ I.A. Karimov. O'zbekiston siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. -T.: «O'zbekiston», 1997. -137 b.

² O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, №2, 80-modda.

³ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-yil, №1-2, 1-modda.

Fuqarolar, shu jumladan, voyaga yetmagan shaxslar ham hayotda eng ko'p duch keladigan munosabatlar – bu fuqarolik-huquqiy munosabatlardir. Xo'sh, bu qanday munosabatlar?

Kundalik hayotimizda biz ko'plab munosabatlarga kirishamiz. Masalan, ertalab turib, elektr energiyaga, suvoqavaga, issiq va sovuq suvga, gazga murojaat qilamiz, ko'chaga – ishga yoki o'qishga otlanamiz, transportga chiqamiz, umumiy ovqatlanish maskanlariga kirib, qormimizni to'yg'azamiz, kino, teatr, stadionlarga tushib, ma'naviy ozuqa olamiz. Bu – hali hammasi emas. Siz fuqarolik-huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi sifatida xususiy bank, fermer xo'jaligi, xususiy korxona, advokatura ochishingiz; «Rotshild va uning o'g'illari» (Angliya), «Doyche-bank» (Germaniya) banklarining, jahonga mashhur Coca-Cola, Mc.donalds kompaniyalarining mamlakatimizda sho'ba korxonalarini ochishingiz, o'z hayotingiz va sog'lig'ingizni turli baxtsiz hodisalardan sug'urta qildirishingiz mumkin. Bilasizmi, bu haqda jahon hamjamiyati tinchlik, totuvlik va o'zaro hamkorlik, birdamlik yo'lini tanlagan. Yuqoridagi holatlar 1948-yil 10-dekabr kuni qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida (bundan keyingi o'rnlarda Deklaratsiya deb yuritamiz – mualliflar) o'z aksini topgan.

Shu ma'noda olganda, Deklaratsiyaning muqaddimasida insoniyat oilasining hamma a'zolariga (shu jumladan, voyaga etmaganlarga ham – ta'kid mualliflarniki) xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik,adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligiga e'tibor berilganligi bejiz emas. Shuningdek, sizning sha'n, qadr-qimmat, shaxsiy daxlsizlik, nomga bo'lган huquqingiz ham boshqa huquq (jumladan, jinoyat huquqi, ma'muriy huquq) sohalari qatori fuqarolik huquqi bilan ham qo'riqlanishini bilishingiz muhim. Bir so'z bilan aytganda, bularning barchasi fuqarolik-huquqiy munosabatlardir. Chunki ushbu munosabatlarning negizida muayyan mol-mulk, manfaat va shartnomaviylik yotadi. Ushbu munosabatlar mamlakatimizda huquqning alohida sohasi – fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadi va mustahkamlanadi. U bir qator teng huquqli subyektlar – fuqarolar, yuridik shaxslar

va davlat o'rtasida yuz beradi. Yuqoridagilarni umumlashtirib, **fugorolik huquqi** yuridik jihatdan teng bo'lgan subyektlar o'rtasidagi mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladigan va mustahkamlaydigan huquqiy normalar yig'indisidir, deb aytish mumkin. Ushbu hol Deklaratsiyaning 1-moddasida: «Hamma odamlar o'z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak», deb ta'riflanadi.

Shuni ham aytish kerakki, siz hayotingizda huquqning boshqa sohalari – mehnat huquqi, soliq huquqi, bojxona huquqi, jinoyat huquqi bilan ham to'qnash kelishingiz mumkin. Ammo aytinchchi, ular bilan har damda to'qnash kelishingiz mumkinmi? Birdan «yo'q», deb javob berishingiz tabiiy. O'ylab ko'ring – mehnat huquqi bilan faqat muayyan korxonada xodim sifatida ishlayotganingizda, bevosita mehnat jarayonida to'qnashasiz, soliq huquqi bilan, deylik, yer solig'i bilan soliq qonunchiligiga binoan yilda ikki marta, bojxona huquqi bilan – qachonki O'zbekiston sarhadlaridan tashqariga chiqilganda yoki kiganingizda to'qnash kelasiz. Bilasizmi, siz jinoyat huquqi bilan umuman to'qnash kelmasligingiz mumkin, agar jinoyat ko'chasiga kirmasangiz, jinoyat qonunchiligi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) qilmasangiz, jinoiy-huquqiy munosabatlarning subyekti bo'lmafsiz. Xulosa o'zingizga, siz yuqoridagi huquq sohalarida dam-badam yoki umuman qatnashmasligingiz mumkin. Ammo fuqarolik huquqidan ayro tusha olmaysiz. Ushbu o'rinda biz sizning mulkdorlik qiyofangizni ochib bermoqchimiz. Nima deb o'ylaysiz – Siz ayni hozirgi paytda o'zingizni mulkdor deb hisoblaysizmi? Mulk o'zi nima ekanligi haqida qanday bilimlarga egasiz? Ushbu holatlar mamlakatimizda va jahon hamjamiyatida qaysi hujjatlar bilan tartibga solinadi deb o'ylaysiz? Ushbu hujjatlarga ko'ra, siz qanday huquq va majburiyatlarga egasiz? Ushbu masalalarda biron-bir nizo, kelishmovchilik kelib chiqqanda, uni qanday tartibda hal qilish, kimga murojaat ettishni bilasizmi, sizning huquqlaringizni kim va qanday himoya qilishinichi? Ana shular haqida so'zlamoqchimiz.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar doirasida mulkiy munosabatlar yetakchi o'rinni egallaydi. Mulkiy munosabatlar deganda, iqtisodiy munosabatlar, ya'ni ishlab chiqarish vositalari, iste'mol buyumlari, umuman kishi mehnatining har qanday mahsulotlarni yaratish, egallah, foydalanish va tasarruf etish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi.

Ammo mulkiy munosabatlarning barchasi ham fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinavermaydi. Ba'zi mulkiy munosabatlar huquqning boshqa sohalari bilan ham tartibga solinadi. Huquqiy munosabatda qatnashuvchi bir tarafning ikkinchi tarafga ma'muriy jihatdan bo'ysunishiga asoslangan mulkiy munosabatlar – ma'muriy huquq normalari bilan, soliq va byudjet bilan bog'liq munosabatlar – moliya huquqi normalari bilan, shuningdek, yer bilan bog'liq munosabatlar – yer huquqi normalari bilan, mehnat shartnomasi hamda intizomiy bo'ysunu bilan bog'liq munosabatlar – mehnat huquqi normalari bilan tartibga solinadi.

Fuqarolik huquqi asosan, muayyan ekvivalent (tenglik) barobari bilan belgilanadigan, qiymat, baho bilan ifodalanadigan va ishtirokchilari teng darajada ko'riladigan mulkiy munosabatlarni tartibga soladi. E'tibor bering-a, Deklaratsiyada belgilangan tenglik alomati bizning, milliy qonunchiligidamda aynan Fuqarolik kodeksida nazarda tutiladi.

Fuqarolik huquqi tomonidan tartibga solinadigan mulkiy munosabatlar doirasi nihoyatda keng. Bular jumlasiga do'kondan o'quv qurollari, muzqaymoq, «chupa-chups», bodroq sotib olish, sartaroshxonaga kirib soch kaltalatish, otanonalar bilan boshqa shaharga sayohatga borilganda ijara uy olish, tillarni, fanlarni chuqurroq o'zlashtirish maqsadida repetitorlarga qatnash, stadionlarga futbol tomosha qilishga, zoopark, muzeylar, teatrلarga borish, transport xizmatidan foydalanish, ayni paytda boshqalarga zarar yetkazish ham (eslang-a, «O'zbekfilm» mahsuloti bo'lgan – «Suyunchi» filmini) – bularning hamma-hammasi mulkiy munosabatlar hisoblanadi.

Fuqarolik huquqi tomonidan **shaxsiy-nomulkiy munosabatlar** ham tartibga solinadi. Ularga intellektual faoliyat natijalariga

bo'lgan va mualliflik huquqiga doir munosabatlarni ko'rsatish mumkin. Bu munosabatlarda faqat mulkiy munosabatlarnigina emas, balki ularning shaxsiy huquqlarini ham, chunonchi, asarni o'z nomidan, taxallusi ostida yoki nomini ko'rsatmasdan anonim tarzda nashr etish, asarning daxlsizligi huquqlari, ixtironing muallifi bo'lib tanilish huquqi va boshqa huquqlami belgilaydi. Eslang, Navoiy bobomiz hali besh-olti yoshlaridayoq she'r yoza boshlaganini. Oqqan daryo, oqaveradi deganlaridek, hozirda ham bunday iste'dod sohiblari sizning tengqurlaringiz, sinfdoshlaringiz orasida borligiga shubhamiz yo'q.

Shuningdek, fuqaroning sha'ni, qadr-qimmati, hayoti va sog'lig'i, shaxsiy hayotining daxlsizligi kabi shaxsiy-nomulkiy huquqlar ham borki, ular pul bilan o'lchanmaydi, shu bilan birga uning biron-bir o'lchov mezoni ham yo'q. Hech, eshitganmisiz, «palonchi meni palon metrlik obro'yimni to'kdi, palon kilo menga zarar yetkazdi», – degan gaplarni. – Yo'g'-a?

Yana bir holatga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Agar qonundan yoki milliy odatdan boshqacha tartib kelib chiqmasa, fuqaro o'z familiyasi va nomidan, shuningdek, otasining ismi bilan huquq va burchlarga ega bo'ladi hamda ularni amalga oshiradi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda fuqaro taxallusdan (to'qilgan ismdan) foydalanishi mumkin. Bilasiz, shoir-yozuvchilarimiz asosan taxallusdan foydalanadilar (Navoiy, Oybek, M.Yusuf, M.Toir va boshq.).

Fuqaro qonunda belgilangan tartibda o'z ismini o'zgartirishga haqli. Fuqaroning o'z ismini o'zgartirishi avvalgi ismi bilan olgan huquq va burchlarini bekor qilish yoki o'zgartirish uchun asos bo'lmaydi.

Ismini o'zgartirgan fuqaro o'zining avvalgi ismiga rasmiy-lashtirilgan hujjatlarga o'z hisobidan tegishli o'zgartirishlar kiritilishini talab qilishga haqli. Ayni vaqtida shuni aytamizki, boshqa shaxs ismidan foydalanib huquq va burchlarga ega bo'lishga yo'l qo'yilmaydi.

Bir so'z bilan aytganda, mulkiy xarakterda bo'lмаган shaxsiy munosabatlар shaxsning o'zi bilan bevosa bog'liq bo'lgan va undan begonalashtirilmaydigan huquqlardir.

Biz fuqarolik huquqi haqida so‘z yurityapmiz. Ammo siz uni, ya’ni fuqarolik huquqi iborasini fuqaroviylik bilan chalkashtirmasligingiz lozim. Shaxsning fuqaroligi – bu uning jismoniy shaxs sifatida muayyan davlatga mansubligi, davlat bilan shaxs o‘rtasidagi doimiy, barqaror huquqiy bog‘lanishidir. Masalan, O‘zbekiston fuqaroligi, Rossiya fuqaroligi, Qozog‘iston fuqaroligi kabi. Fuqarolik huquqi esa mutlaqo boshqa va keng ma’nodagi tushunchadir. Fuqarolik huquqi iborasi kelib chiqishining tarixiy ildizi Rim «sivil huquqi» (jus civil) ga borib taqaladi. Qadimgi Rimda bu huquq tushunchasi Rimning tubjoy fuqarolari-kviritlar (cives) huquqini, davlat-shaharlar (civitas) huquqini anglatgan. Keyinchalik, Yevropa mamlakatlari huquq tizimlari tomonidan Rim xususiy huquqini o‘zlashtirib olish jarayonida bu tushuncha hozirgi zamon yuridik atamashunosligiga ko‘chirildi.

Fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilari to‘laqonli ushbu munosabatlarda ishtirok etishlari uchun ular ikki xususiyatga ega bo‘lishlari lozim. Ya’ni fuqarolar huquq va muomala layoqatiga ega bo‘lishlari shart.

Fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilarining ma’lum fuqarolik huquqiga ega bo‘lish va shunga yarasha majburiyat (burch) ola bilish layoqati fuqarolik **huquq layoqatidir**. Bir so‘z bilan aytganda, fuqarolik huquq va burchlarga ega bo‘lish – fuqarolik huquq layoqati, demakdir. Barcha fuqarolar huquq layoqatida tengdirlar. Deklaratsiyaning 2-moddasiga ko‘ra, har bir inson irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e’tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat’i nazar Deklaratsiyada e’lon qilingan barcha huquq va barcha erkinlikka ega bo‘lishi zarur. Bu hol mamlakatimiz milliy qonunchiligidagi ham o‘z ifodasini topgan. Chunonchi, Konstitutsiyamizning 2-bobida, Fuqarolik kodeksining 17-moddasida bu hol qayd qilingan.

Fuqaroning huquq layoqati, odatda, u tug‘ilganida vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi. Ba’zan, huquq layoqati bola tug‘ilgunga qadar ham vujudga keladi, faqat bola tirik tug‘ilsa. Meros huquqiga ko‘ra, ochilajak merosda homilaning ham huquq layoqati yotadi.

Amaldagi Fuqarolik kodeksi fuqarolarning huquq layoqati mazmunini ancha boyitdi. Unga ko'ra, fuqarolar:

- mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo'lishlari;
- mulkni meros qilib olishlari va vasiyat qilib qoldrishlari;
- bankda jamg'armalarga ega bo'lishlari;
- tadbirkorlik, dehqon, fermer xo'jaligi bilan hamda qonunda ta'qiqlab qo'yilmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishlari;
- yollarma mehnatdan foydalanishlari, o'zlar mustaqil ravishda yoki boshqa fuqarolar va yuridik shaxslar bilan birgalikda yuridik shaxslar tashkil etishlari;
- qonunga zid bo'limgan har qanday bitimlar tuzishlari va majburiyatlarda qatnashishlari;
- boshqa shaxslar tomonidan yetkazilgan zararning to'lanishini talab qilishlari;
- mahsulot turini va yashash joyini tanlashlari;
- fan, adabiyot va san'at asarlarining, ixtiroarning, qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa intellektual faoliyat natijalarining muallifi huquqiga ega bo'lishlari mumkin.

Biz huquq layoqati haqida tanishdik. Lekin fuqaroning hayotiy munosabatlarda ishtirok etishi uchun buning o'zi yetarli emas. U muomala layoqatiga ham ega bo'lishi lozim.

Muomala layoqati – fuqarolarning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqatidir. To'la muomala layoqati sohibi qonun yo'l qo'ygan istalgan turdag'i yuridik harakatlarni qilishi mumkin (masalan, shartnomalar tuzish, yetkazilgan zarami to'lash va hokazolar).

Muomala layoqatining huquq layoqatidan farqi shuki, barcha fuqarolar ham muomala layoqatiga ega bo'lavermaydilar. Muomala layoqatiga ega bo'lishning sharti shundaki, muomala layoqatiga ega bo'lgan fuqarolar aqlirasolik bilan o'z harakatlarining oqibatlarini tushunib harakat qiladilar. Ma'lumki, yangi tug'ilgan bola to'liq huquq layoqatiga ega bo'lsa ham, o'z harakatlari bilan bironta huquq va majburiyat ola olmaydi.

Unutmang, to'la muomala layoqati **18 yoshdan** boshlanadi.

Shuningdek, to'la muomala layoqati quyidagi hollarda ham vujudga keladi:

- voyaga yetgunga qadar qonuniy asoslarda nikohdan o'tgan fuqaro nikohdan o'tgan vaqtidan e'tiboran;
- nikoh tuzish natijasida ega bo'lingan muomala layoqati o'n sakkiz yoshga to'lmasdan turib nikoh bekor qilingan taqdirda ham to'la saqlanib qoladi;
- emansipatsiya holatiga ko'ra, 16 yoshli fuqaro to'la muomalaga layoqatli, deb e'lon qilinganda.

Xo'sh, voyaga yetmagan shaxslarning fuqarolik muomala layoqati qanday?

Eng avvalo, shuni aytamizki, Fuqarolik kodeksi voyaga yetmaganlarni **ikki guruhg'a** bo'ladi — yosh darajalariga ko'ra, ya'ni 14 yoshgacha bo'lgan va 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar.

O'n to'rt yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar (yosh bolalar) to'la muomala layoqatiga ega emaslar.

Olti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolalar:

— mayda maishiy bitimlar, masalan, biroz yuqorida aytnanimizdek, muzqaymoq, o'quv qurollari sotib olish, qaysiki, o'z ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi narsalarni sotib olish;

— tekin manfaat ko'rishga qaratilgan, notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlar, masalan, tug'ilgan kunlarda, hayit va Navro'z bayramlarida ota-onalaridan, bobo-buvilaridan, yaqin qarindoshlaridan, sinfdoshlaridan biron-bir sovg'a (hadya) olish va ushbu narsalarni tasarruf etish borasidagi bitimlarni amalga oshirishga haqlidirlar.

O'n to'rt yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar uchun bitimlarni ular nomidan ota-onalari, farzandlikka oluvchilar yoki vasiylari (qonuniy vakillari) tuzadilar.

Birovga yetkazilgan zararlari uchun ham javobgar bo'lmaydilar. Ular uchun ota-onalari yoki boshqa nazoratchilari javobgardirlar.

O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar (o'smirlar) qisman muomalaga layoqatli bo'lib,

qonuniy vakillari (ota-onalari, farzandlikka oluvchilar yoki homiylari)ning roziligi bo'lgan taqdirda o'z harakatlari bilan huquq va majburiyatlar olishlari mumkin.

O'smirlar bitimlarni ota-onalari, farzandlikka oluvchilar yoki homiylarining roziligi bilan tuzadilar. Ammo ular mustaqil ravishda o'zlarining ish haqlari yoki stipendiyalarini tasarruf qilishga, o'z asarlari, ixtiolariga bo'lgan mualliflik hamda ixtirochilik huquqlarini, o'z kashfiyotlariga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishga, banklarga mablag'lar qo'yish va ularni tasarruf etishga, shuningdek, boshqa mayda maishiy bitimlarni tuzishga haqlidirlar. Ular 16 yoshdan kooperativlarga a'zo bo'lib kirishlari mumkin.

Yetarli asoslar mavjud bo'lganida sud qonuniy vakillari yoki vasiylik va homiylik organining iltimosnomasiga ko'ra, o'smirlni o'z ish haqi yoki stipendiyasini mustaqil tasarruf qilish huquqini cheklashi yoki bu huquqdan mahrum yetishi mumkin.

O'smirlar boshqa shaxslarga yetkazilgan zararlari uchun amaldagi qonunlarimizda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Fuqarolar o'zlarining huquq layoqati mazmuniga yarasha xilma-xil fuqarolik huquqlari olish imkoniyatiga egadirlar.

Prezidentimiz I.Karimov uqtirganidek, fuqarolik huquqlarini amalga oshirish va burchlarni bajarish vaqtida fuqarolar... davlatimiz bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida qonularga va normativ huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir¹.

Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish tartibi Fuqarolik kodeksining 9-moddasida ko'rsatilgan. Unga asosan, fuqarolar... fuqarolik huquqlarini o'z erklari bilan, o'z manfaatlarini ko'zlab qo'liga kiritadilar hamda amalga oshiradilar. Ular o'zlariga tegishli fuqarolik huquqlarini, shu jumladan, bu huquqlarni himoya qilish huquqini ham o'z xohishlariga qarab tasarruf etadilar. Bunda ular, hatto o'zlariga tegishli huquqlarni amalga oshirishdan voz kechishga ham haqlidirlar va bu holat qonunda

¹ I.A.Karimov. O'zbekiston bozor munosabatlariiga o'tishning o'ziga xos yo'li. -T.: «O'zbekiston». 1993. - 72 b.

nazarda tutilgan hollardan tashqari (masalan, merosdan voz kechish) huquqlarning bekor qilinishiga olib kelmaydi.

Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish boshqa shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart. Qonun fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilarining insofli, oqilona va adolat bilan harakat qilishini nazarda tutadi.

Fuqarolar... o'z huquqlarini amalga oshirishda jamiyatning ma'naviy tamoyillari, axloqiy normalarini hurmat qilishlari, tadbirkorlar esa ish yuritish odobi qoidalariga rioya qilishlari shart. Ular o'z huquqlarini amalga oshirish jarayonida boshqalarga zarar yetkazmasliklari, o'z huquqlarini suiiste'mol qilmasliklari, shuningdek, ulardan qonun hujjatlariga zid ravishda foydalanmasliklari shart.

Fuqarolar... o'z huquqlarini amalga oshirishda ushbu shartlarga rioya etmasalar, sud ularga tegishli huquqni himoya qilishni rad etishi mumkin.

Xo'sh, buzilgan fuqarolik huquqlari qanday usullar bilan himoya qilinadi? Huquqni himoya qilish usullari ham qonunlarimizda mustahkamlab qo'yilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- huquqni tan olish (masalan, asarning birov tomonidan o'zlashtirilib nashr etilgani to'g'risida nizo bo'lgani holda, shu asarga nisbatan mualliflikni tan olish);

- huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug'diradigan harakatlarning oldini olish (masalan, mulk egasi o'zining mulkidan foydalanish huquqining har qanday ravishda buzilishini bartaraf etish va kelgusida mulkdan foydalanishda halaqt bermaslik majburiyatini buzuvchi shaxsga yuklash);

- shaxsning o'z huquqlarini o'zi himoya qilishi;

- burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish (masalan, sotilgan ashyo sotuvchi tomonidan ixtiyoriy ravishda topshirilmaganida uning oluvchisiga majburiy tarzda olib berish);

- zararni to'lash;

- ma'naviy ziyyoni qoplash va boshqalar.

Buzilgan fuqarolik huquqlari sud va xo'jalik sudi orqali himoya qilinadi, shuningdek, fuqaro o'z huquqlarini o'zi himoya qilishi ham mumkin. Bu hol Deklaratsyaning 8-moddasida «Har bir inson unga konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga ega», deb belgilangan normasi bilan hamohangdir.

Shaxsning o'zi tomonidan ham fuqarolik huquqlarini himoya qilishga yo'l qo'yiladi. Biroq bunda himoya ma'lum shartlar asosida amalga oshirilmog'i lozim. Ya'ni shaxsning o'zi tomonidan fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari huquqni buzish darajasi bilan baravar bo'lishi hamda huquqni buzishga yo'l qo'yish uchun zarur harakatlar doirasidan chiqib ketmasligi lozim. Masalan, iste'molchi o'ziga sotilgan nuqsonli tovarni ushlab qolib, yetkazilgan zarar va jarima to'lanmaguncha qaytarib bermaslikka haqli bo'ladi.

Mana, aziz bolajonlar, siz nazarimizda fuqaro sifatida hozirda bilishingiz lozim bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'ldingiz, deb o'ylaymiz. Ammo shuni unutmangki, qonunlarda belgilangan huquqlar, erkinliklar va ayni paytda majburiyatlar – bu hali qog'ozda mavjud bo'lgan huquqlardir. Demoqchimizki va istagimiz shuki, Siz kelgusida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning to'laqonli ishtirokchisi bo'lasiz, o'z huquq va qonuniy manfaatlaringizni qayerda bo'lmasin himoya qila olasiz va mamlakatimiz rivoji yo'lida munosib voris bo'lasizlar.

II bob. VOYAGA YETMAGANLARNING MEHNAT QILISH HUQUQI VA UNI AMALGA OSHIRISH

O'zbekiston Respublikasida yoshlar haqida g'amxo'rlik qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, ularning kasb-hunar o'rganishlari, olgan kasblari bo'yicha mehnat qilishlari uchun zarur ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy sharoit yaratish ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. «Yoshlar yili» deb e'lon qilingan 2008-yilda amalga oshirilgan Davlat dasturida eng muhim vazifa sifatida yoshlar huquqlarini kengaytirish, ularning kafolatlarini kuchaytirish vazifasi dolzarb qilib belgilangandi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlar alohida imtiyozga ega tabaqa sifatida davlat va jamiyat tomonidan ardoqlanadi. Bunda ularga iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa masalalarda keng qo'shimcha imkoniyatlar yaratilgan bo'lib, bular orasida mehnat qilish huquqlari yetakchi o'rinda turadi.

Voyaga yetmagan fuqarolarga bandlik sohasida qo'shimcha kafolatlar berilgan bo'lib, mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha korxona va tashkilotlar ular uchun qo'shimcha ish joylarini kvotalab qo'yishlari, Bandlikka ko'maklashish markazlari tomonidan ishga yo'llangan o'smirlarni esa belgilangan ish joylariga ishga qabul qilishlari, ularga ishlab chiqarishning bevosita o'zida shogirdlik asosida kasb-hunar o'rganishlari uchun imkoniyat yaratib berishlari kerak.

Mehnat shartnomasi tuzish va ishga qabul qilish chog'ida voyaga yetmaganlar uchun qo'shimcha kafolatlar nazarda tutilgan. Jumladan, ularning salomatligi va ma'naviy-axloqiy tarbiyasi muhofaza etilishi uchun moddiy javobgarlik bilan bog'liq ishlarga, o'rindoshlik asosida 18 yoshga to'limgan shaxslarni ishga qabul qilinishlari taqiqilanadi. Shuningdek, qonun hujjalarda 18 yoshga to'limgan shaxslar mehnatidan

foydalanimishga yo'l qo'yilmaydigan kasblar, ishlar nazarda tutilgan.

Voyaga yetmaganlar salomatligini muhofaza qilish maqsadida 18 yoshga to'lmagan o'smirlarning har qanday ishga faqat dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tkazilib qabul qilinishlari belgilangan. 16 yoshga to'lmagan bolalar manfaatlarini himoya qilish maqsadida ularni ishga qabul qilish va mehnat shartnomasi tuzish chog'ida otasi yoki onasi, yoxud boshqa voyaga yetgan oila a'zolarining yozma roziliqi talab etiladi.

Bandlikka ko'maklashish markazlari tomonidan ishga yo'llangan voyaga yetmaganlar dastlabki sinov shartlarisiz ishga qabul qilinishlari lozim.

Aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish maqsadida korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiyonaladigan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo'lmagan shaxslami ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilanadi. Bunda kasb-hunar ta'limiga ega bo'lmagan yoshlar uchun, ular umumta'lim muassasalarini tamomlaganlaridan keyin bir yil davomida shogirdlik ish joylari yoki maxsus kasb-hunar tayyorgarlikni talab qilmaydigan ish joylari; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarini tamomlagan yoshlar uchun esa o'quv yurtini tamomlaganlaridan keyin bir yil davomida ularning kasb-hunar tayyorgarligiga muvofiq keluvchi ish joylari ajratiladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun, shu jumladan, 18 yoshga to'lmagan shaxslar uchun ajratilgan eng kam ish joylari hisobidan ishga qabul qilishni asossiz rad etganlik g'ayriqonuniy harakat bo'lib, bunday harakat ustidan 18 yoshga to'lmagan shaxs yoki uning qonuniy vakillari (otasi, onasi, vasiy etib tayinlangan shaxs) sudga shikoyat qilishlari mumkin.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan xodimlar o'zlarining mehnat huquq layoqatlari mazmuni bo'yicha katta yoshdag'i xodimlar bilan teng huquqqa ega bo'ladilar. Jumladan, ish haqni olish, korxonada belgilangan yengillik va imtiyozlardan foydalinish, kafolatli va kompensatsiyalar hamda boshqa masalalarda ular kattalar bilan teng huquqlidirlar.

Yollanib ishlash huquqi ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi tuzish orqali amalga oshiriladi va bunda mehnat shartnomasi xodimning va ish beruvchining huquqlarini himoyalash vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mehnat shartnomasi xodim bilan ish beruvchi o'tasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo'yicha ishni ichki mehnat tartibiga bo'ysungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish haqidagi kelishuvdir.

Xodim va ish beruvchi mehnat shartnomasining taraflari bo'lib hisoblanadilar. Mehnat shartnomasini tuzish haqidagi kelishuvdan oldin qo'shimcha holatlar (tanlovdan o'tish, lavozimga saylanish va boshqalar) bo'lishi mumkin.

Xodim o'rindoshlik asosida ishlash to'g'risida, basharti bu qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan bo'lsa, mehnat shartnomalari tuzishi mumkin.

Mehnat shartnormasining mazmuni taraflar kelishuvi bo'yicha, shuningdek, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

Mehnat shartnomasida taraflarning kelishuvi bilan quyidagilari belgilanadi:

- ish joyi (korxona yoki uning bo'linmasi);
- xodimning mehnat vazifasi – mutaxassisligi, malakasi, u ishlaydigan lavozim; ishning boshlanish kuni;
- mehnat shartnomasi muayyan muddatga tuzilganda uning amal qilish muddati;
- mehnat haqi miqdori va mehnatning boshqa shartlari.

Mehnat shartnomasini tuzish paytida xodimlarning qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan mehnat huquqlari va kafolatlari darajasi pasaytirilishi mumkin emas.

Mehnat shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Mehnat shartnormasining shakli O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadigan namunaviy shartnomani hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

Mehnat shartnomasi bir xil kuchga ega bo'lgan kamida ikki nusxada tuziladi va har bir tarasga saqlash uchun topshiriladi.

Mehnat shartnomasida taraflarning manzillari ko'rsatiladi.

Mehnat shartnomasi xodim va ishga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxsning imzolari bilan mustah-kamlanib, imzolangan muddati qayd etib qo'yildi. Mansabdor shaxsning imzosi imzoning haqiqiy va vakolatli ekanligini ta'kidlash tariqasida korxona muhri bilan tasdiqlanadi.

Mehnat shartnomalari:

- nomuayyan muddatga;
- besh yildan ortiq bo'limgan muayyan muddatga;
- muayyan ishni bajarish vaqtiga mo'ljallab tuzilishi mumkin.

Agar mehnat shartnomasida uning amal qilish muddati ko'rsatilmagan bo'lsa, mehnat shartnomasi nomuayyan muddatga tuzilgan deb hisoblanadi.

Nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasi xodimning roziligesiz muayyan muddatga, shuningdek, muayyan ishni bajarish vaqtiga mo'ljallab qayta tuzilishi mumkin emas.

Mehnat shartnomasi uning taraflari kelishuviga ko'ra, shuningdek, qonun hujjatlarda belgilangan hollarda va tartibda ulardan birining tashabbusiga ko'ra o'zgartirilishi mumkin. Xodimni uning roziligesiz doimiy boshqa ishga o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Mehnat shartnomasi quyidagi sabablarga ko'ra bekor qilinishi mumkin:

- 1) taraflarning kelishuviga ko'ra. Ushbu asosga binoan mehnat shartnomasining barcha turlari istalgan vaqtida bekor qilinishi mumkin;
- 2) taraflardan birining tashabbusi bilan;
- 3) muddatning tugashi bilan;
- 4) taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'limgan holatlarga ko'ra;
- 5) mehnat shartnomasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra;
- 6) yangi muddatga saylanmaganligi (tanlov bo'yicha o'tmaganligi) yoxud saylanishda (tanlovda) qatnashishni rad etganligi munosabati bilan.

Mehnatga oid munosabatlarni bekor qilish to'g'risidagi shart mehnat shartnomasida bu shartnomada ish beruvchi tomonidan korxona rahbari, uning o'rindbosarlari, bosh buxgalter bilan,

korxonada bosh buxgalter lavozimi bo'lmagan taqdirda esa, bosh buxgalter vazifasini amalga oshiruvchi xodim bilan tuzilganda, shuningdek, qonunda yo'l qo'yiladigan boshqa hollarda ham nazarda tutilishi mumkin.

Ish beruvchi tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish huquqi cheklangan bo'lib, faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va belgilab qo'yilgan kafolatlarga qat'iy rioya etilgani holdagina yo'l qo'yiladi. Xodimlarni g'ayriqonuniy ishdan bo'shatgan yoxud boshqa ishga o'tkazgan ish beruvchi moddiy va ma'naviy zarar o'rnini qoplashi, uning mansabdor shaxslari esa huquqiy javobgarlikka tortilishi lozim bo'ladi. Mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilingan yoki xodim g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazilgan hollarda, u ish beruvchining o'zi, sud yoki boshqa vakolatli organ tomonidan avvalgi ishiga tiklanishi lozim.

Ishga tiklanganda ish beruvchiga xodimga etkazilgan zararni qoplash majburiyati yuklatiladi.

Ular salomatligini muhofaza qilish, xavfsiz mehnat sharoitlari yaratish maqsadlarida qo'shimcha imtiyozlar belgilangan bo'lib, bular voyaga yetmaganlar mehnat huquq layoqatining o'ziga xos jihatlarini aks ettiradi.

O'n besh yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar ota-onalari, farzandlikka oluvchilar va homiyalarining roziligesiz o'z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini tasarruf etishlari mumkin.

Yetarli asoslar mavjud bo'lganida sud ota-onalar, farzandlikka oluvchilar yoki homiyuning yoxud vasiylik va homiylik organining iltimosnomasiga muvofiq o'n besh yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganning o'z ish haqi, stipendiyasi yoki boshqa daromadlarini mustaqil tasarruf etish huquqini cheklab qo'yishi yoki bu huquqdan mahrum qilishi mumkin.

Voyaga yetgunga qadar qonuniy asosda nikohdan o'tgan fuqaro nikohdan o'tgan vaqt dan e'tiboran to'la hajmda muomala layoqatiga ega bo'ladi. Ushbu muomala layoqati o'n sakkiz yoshga yetmagan shaxs nikohi bekor qilinganida ham saqlanib qoladi.

O'n sakkiz yoshga to'Imagan shaxs tomonidan o'z ish haqini behuda sarflashi (spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar iste'mol qilishga ruju qo'yishi, qimor o'ynashi, virtual elektron o'yinlarga berilib ketishi va hokazolar) ota-onasi, farzandlikka oluvchisi, vasiylik va homiylik organi iltimosiga ko'ra uning o'z ish haqini mustaqil tasarruf etish huquqi cheklanishiga sabab bo'lishi mumkin.

O'n sakkiz yoshga to'Imagan shaxslar mehnatidan foydalanishga yo'l qo'yilmaydigan ishlardan kasblarda ularni shogirdlik asosida kasbga tayyorlash maqsadida faoliyat olib borishlariga yo'l qo'yilmaydi.

O'n sakkiz yoshga to'Imagan o'smirlar yuklarni qo'lda tashish bilan bog'liq ishlarda ular ko'tarishi va tashishi mumkin bo'lgan yuklarning eng ko'p miqdori qonun bilan cheklangan.

Yuklarni ko'tarib bir joydan ikkinchi joyga olib qo'yilishi bilan bog'liq ishlarda yigitlar 13 kg. dan, qizlar 7 kg. dan ortiq yuk ko'tarish bilan bog'liq bo'lsa ishlashlari mumkin emas. Voyaga yetmagan xodimlar ko'tarishi mumkin bo'lganidan ortiqcha yuk ko'tarish bilan bog'liq bo'lgan ishlarda ular mehnatidan foydalanish mehnat qonunchiligini buzish bo'lib, bunda aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar tegishli huquqiy javobgarlikka tortiladilar.

Voyaga yetmagan xodimlar salomatligini muhofaza qilish va normal o'sib kamol topishlarini ta'minlash uchun ular ish vaqtлari muddatining eng ko'pi va dam olish vaqtlarining eng kami belgilangan.

Bunda ular ish vaqtining davomiyligi o'n oltidan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlarga haftasiga o'ttiz olti soatdan, o'n beshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslar (ta'til davrida ishlayotgan o'n beshtdan o'n olti yoshgacha bo'lgan o'quvchilar) uchun esa haftasiga yigirma to'rt soatdan oshmaydigan qilib belgilanganadi.

O'qishdan bo'sh vaqtlarida ishlayotgan o'quvchilarning o'quv yili davomidagi ish vaqtini muddati tegishli yoshdagilari shaxslar uchun nazarda tutilgan ish vaqtini eng ko'p muddatining yarmidan ortib ketishi mumkin emas.

O'n sakkiz yoshga to'lgan xodimlarning ish kuni uzunligi ish vaqtining ular uchun qisqartirilganligi hisobga olingani holda, korxonaning ichki mehnat tartibi qoidalarida belgilab qo'yiladi (ishni boshlanishi va tamom bo'lish vaqtini, tushlik vaqtini, dam olish kunlari).

O'n sakkiz yoshga to'limgan xodimlarga qisqartirilgan ish vaqtini (ish haftasi, ish kuni) joriy etilsada, ularga katta yoshdagagi xodimlar uchun belgilangan normalarga muvofiq (haftasiga 40 soat hisobidan) ish haqi to'lanadi.

O'n sakkiz yoshga to'limgan shaxslarni ish vaqtidan tashqarilarga, tungi ishlarga, dam olish kuni va bayram kunlaridagi ishlarga jaib etilishlari, hatto bu shaxslarning o'zlarini rozi bo'lsalarda mumkin emas. O'n sakkiz yoshga to'limgan xodimlar o'rindoshlik bo'yicha ishlashlariga yo'l qo'yilmaydi. O'n sakkiz yoshga to'limgan xodimarni korxonadagi navbat-chilikka jaib etish, xizmat safariga yuborish ham taqiqlanadi.

O'n sakkiz yoshga to'limgan xodimlarga qisqartirilgan ish vaqtini joriy etilishi (ish haqi to'lash qisqartirilmagan holda), ularni ish vaqtidan tashqari ishlarga, tungi ishlar, dam olish va bayram kunlardagi ishlarga jaib etishni taqiqlanishiga oid qoidalar mulkchilik shakli, xo'jalik yuritish usuli, hajmi (mikro firma, kichik korxona, xususiy korxona)dan qat'i nazar barcha turdagи korxonalar, tashkilotlar (shu jumladan, tijoratchi bo'limgan tashkilotlar) uchun majburiydir. Ushbu qoidalarni buzilishi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquqiy javobgarlik choralarini (intizomiy, moddiy, ma'muriy, jinoiy) qo'llanishiga sabab bo'ladi.

O'n sakkiz yoshga to'limgan xodimlarga kamida o'ttiz kalendar kundan iborat yillik ta'til beriladi va ular bu ta'tildan yoz vaqtida yoki yilning o'zlarini uchun qulay bo'lgan boshqa vaqtida foydalanishlari mumkin.

Basharti, ta'til berilayotgan yil xodim o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar va to'lgandan keyingi davrlarni o'z ichiga olsa, ta'tilning muddati o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar bo'lgan ish stoji uchun – o'ttiz kalendar kun hisobidan, o'n sakkiz yoshga to'lgandan keyingi ish stoji uchun esa, umumiy tartibda hisoblab chiqariladi.

Umumiy qoidaga ko‘ra, yangi ishga qabul qilingan xodimlar birinchi ish yili uchun korxonaga kelishda kamida 6 oy ishlaganlardan so‘ng mehnat ta’tiliga chiqishlari mumkin. Biroq o‘n sakkiz yoshga to‘limgan xodimlar uchun mehnat ta’tilini 6 oy ishlamaslaridan avvalroq (1 yoki 2 oy o‘tgach olishlari mumkin). Keyingi ish yillari uchun xodimlarga yillik mehnat ta’tili korxona ish beruvchisi xodimlar vakillik organi bilan kelishib tasdiqlaydigan ta’tillar jadvali asosida beriladi. Ushbu jadval ishlab chiqilayotganida o‘n sakkiz yoshga to‘limgan xodimlarga ta’til ularning xohishiga ko‘ra yoz oylarida (may - sentabr) yoki o’smir xohlagan yilning boshqa fasilda berilishi nazarda tutilishi lozim (Mehnat kodeksining 144-moddasi).

O‘n sakkiz yoshga to‘limgan shaxslarni tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga va dam olish kunlaridagi ishlarga jalb etish taqiqlanadi.

O‘n sakkiz yoshga to‘limgan xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilishga, mehnat shartnomasini bekor qilishning umumiyy tartibiga rioya qilishdan tashqari, mahalliy mehnat organining roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi.

O‘n sakkiz yoshga to‘limgan shaxslar ish beruvchi tashabbusi bilan ishdan bo‘shatilgani hollarda ishdan bo‘shatishning qonuniyligi yuzasidan da’vo qo‘zg‘ash huquqiga o’smirning qonuniy vakillari (ota-onasi, farzandlikka oluvchisi, homiysi) bilan bir qatorda prokuror ham ega bo‘ladi.

Ota-onalar va vasiylar (homiylar), shuningdek, mehnatni muhofaza qilish ustidan nazorat qiluvchi organlar hamda voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug‘ullanuvchi komissiyalar, agar o‘n sakkiz yoshga to‘limgan shaxslar bajarayotgan ishni davom ettirish ular sog‘lig‘iga ziyon qiladigan yoki ularga boshqacha tarzda zarar yetkazadigan bo‘lsa, bunday shaxslar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishni talab etishga haqlidirlar.

Ota-onalar va vasiylar (homiylar), shuningdek, mehnatni muhofaza qilish ustidan nazorat qiluvchi organlar hamda voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug‘ullanuvchi komissiyalar, agar o‘n sakkiz yoshga to‘limgan shaxslar bajarayotgan ishni davom ettirish ular sog‘lig‘iga ziyon yetkazadigan yoki ularga

boshqacha tarzda zarar yetkazadigan bo'lsa, bunday shaxslar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishni talab etishga haqlidirlar.

O'n sakkiz yoshga to'limgan xodimlarning xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlarida ishlayotgan bo'lishi, ishlab chiqarishning zararli omillari ular salomatligi ahvoli, normal o'sib kamol topishlariga nechog'lik ta'sir qilayotganligi hammaning, shu jumladan, ota-onalar, mehnatni muhofaza qilish ustidan nazorat qiluvchi organlar hamda voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalarning diqqat markazida turadi. Ishlab chiqarish jarayonida o'smir xodim sog'lig'i yoki boshqa manfaatlariga xavf-xatar tug'ilgudek bo'lsa, yuqoridagi organlarga ularni bartaraf etish yuzasidan zarur vakolatlar berilgan. Ushbu sharhlanayotgan moddaga binoan o'n sakkiz yoshga to'limgan xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ular tashabbusiga ko'ra bekor qilishi ham ana shunday vakolatlardan biridir. O'n sakkiz yoshga to'limgan shaxslar mehnat qilayotgan ishlab chiqarish sharoitlari ular salomatligiga ziyon yetkazadigan bo'lsa, bajarayotgan ish ularga xavf-xatar tug'dirsa ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi Mehnat kodeksining 106-moddasi, 6-bandiga ko'ra, ya'ni mehnat shartnomasining taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'limgan holatlar bo'yicha bekor qilinishi mumkin. Bunda o'smir bilan tuzilgan mehnat shartnomasi ota yoki onaning, farzandlikka oluvchi, homiy yoki vasiyning, mehnatni muhofaza qilish ustidan nazorat qiluvchi organlar (mehnatning texnik inspektori va boshqa nazorat qiluvchi organlar), voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyalarning talabi bilan ish beruvchi tomonidan Mehnat kodeksining 106-moddasi, 6-bandiga ko'ra bekor qilinishi lozim.

Ish beruvchi o'n sakkiz yoshga to'limgan shaxsni ishdan bo'shatish to'g'risidagi ota-ona, vasiy, mehnat muhofazasi ustidan nazorat qiluvchi organ, voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyalar talabini bajarmasa, u holda mazkur shaxslar da'vo talabi bilan sudga murojaat qilishlari mumkin.

O'n sakkiz yoshga to'limgan xodim ota-onasi yoki boshqa vakolatli shaxslarning mehnat shartnomasini bekor qilinishi va

o'zini ishdan bo'shatilishi to'g'risidagi talabidan norozi bo'lsa, bu narsa uni ishdan bo'shatilishiga xalal bermaydi.

O'n sakkiz yoshga to'limgan xodimni ishdan bo'shatilishini uning ota-onasi yoki boshqa vakolatli organlar tomonidan talab qilinishi huquqining yuzaga kelishiga o'smir xodim mehnat sharoitining zararli va noqulayligiga emas, balki uning manfaatlariiga ziyon yetkazuvchi boshqa har qanday holatlар (masalan, o'smir qadr-qimmatini tushurivchi ishlar, axloq-dobga zid ishlar va boshqalar) sabab bo'lishi mumkin. Bunday holatlarni o'smir sog'lig'i yoki boshqa manfaatlariiga ziyon etkazishi yoki yetkazmasligi yuzasidan nizo chiqsa, manfaatdor shaxslar yoki vakolatli organlar zarar etishi mumkinligini isbotlab berishlari lozim bo'ladi.

Voyaga yetmagan xodimlarni ijtimoliy ta'minoti va ijtimoiy himoyasi ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, imtiyozli tarzda amalga oshirilishi nazarda tutilgandir. 18 yoshga to'limgan ishlab turgan shaxs maishiy sabablar bilan nogiron bo'lib qolganlarida ularga mehnat stoji miqdoridan qat'i nazar nogironlik pensiyasi tayinlanaveradi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlanishi va to'lanishi chog'ida 18 yoshga yetmagan xodimlarning manfaatlari alohida tartibda muhofaza qilinadi. Ya'ni ular marhum bilan birga yashayotgan-yashamayotganliklaridan qat'i nazar pensiya bilan ta'minlanishga haqli bo'ladilar. Qonun hujjatlariga ko'ra otasidan ham, onasidan ham mahrum bo'lib qolgan chin yetim bolalarga oshirilgan miqdorda boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayin etiladi.

Voyaga yetmagan xodimlar davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar bilan ta'minlanish chog'ida ham imtiyozlarga egadirlar.

Korxona hisobidan moddiy va boshqa turdag'i ijtimoiy yordamlar ko'rsatilishi chog'ida voyaga yetmagan xodimlarga maxsus imtiyozlar berilishi mumkinligi korxonaning ichki lokal me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilishi mumkin.

«Yoshlar yili» deb e'lon qilingan 2008 yil va qabul qilingan «Yoshlar yili» Davlat dasturida ham yoshlarning ijtimoiy himoyasi masalalari yetakchi o'rinda turdi. Shuni qayd etish

joizki, mazkur Davlat dasturiga ko'ra yoshlar ijtimoiy himoyasi va yoshlarga oid infratuzilmani rivojlantirish maqsadlarida jami – 1 502 290,2 mln. so'm, shu jumladan: milliy valyutada – 1 430 267,1 mln. so'm, xorijiy valyutada – 54 770,4 ming AQSH dollari sarf-xarajat qilish nazarda tutilgan bo'lib, bu ko'rsatkich undan oldingi yillardagiga nisbatan beqiyos ko'p edi.

Yoshlar ijtimoiy himoyasi va ularning barkamol inson bo'lib kamol topishlari uchun davlat va jamiyat mablag'ni ayamasdan sarflashi ularning ta'lim olishlari, o'qib kasb-xunar o'r ganishlari, farovon hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadini ko'zlaydi. Zeroki, Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov Konstitutsiyamizning 15 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali marosimda ta'kidlab o'tganidek: «Eng asosiysi – ushbu dastur yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi barcha dolzarb muammolarni o'z vaqtida hal etishga qaratilishi va buning uchun mustahkam qonunchilik bazasini ta'minlab berishi lozim. Barchamizga ma'lumki, har qaysi davlat, har qaysi millat avvalo, o'z farzandlari qiyofasida, unib-o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida shu xalqqa xos xususiyat va fazilatlarni namoyon etadigan, uning azaliy orzu-niyatlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk kuchni ko'radi».

III bob. OILAVIY MUNOSABATLARDA VOYAGA YETMAGANLARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH

Ota-onalarning farzandlari o'rtasidagi munosabatlar Sharq xalqlarida alohida o'rinni egallaydi. Bu – oilaning eng bebafo sisatidir. Ota-onanining farzand taqdiri uchun mas'uliyati, farzandlarning ota-onalari oldidagi burchi hech bir xalqda o'zbek xalqiga o'xshab teran vaadolat kasb etmagan. Respublikamizning asosiy qonuni – Konstitutsiyamizda azaliy odatlar ham qat'iy tartibga keltirilgan. Chunonchi, Konstitutsiyaning 64-moddasida «Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar». Yoxud «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar», (66-modda) deb belgilab qo'yilgan.

Oilada an'anaviy tusga kirgan ota-onanining farzandlari taqdiri uchun mas'ulligi, farzandlarning ota-onalarning oldidagi burchi o'zaro hurmat, qadr-qimmatini o'miga qo'yish, mehr-muhabbat, bir-biriga nisbatan oqibatlilik, birgalikda qiyinchiliklarni yengib o'tish kabi sifatlarni voyaga yetayotgan yoshlarda shakllantirish bugungi kunda har bir oila, qolaversa, jamiyat hayotida dolzarb vazifa ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Oilada bolalarga nisbatan munosabat madaniyat, ichki muhit va shu kabilalar e'tiborga olinishi darkor. Shuningdek, o'z harakatlari va bolalarga munosabati bilan bolaga yomon ta'sir qiladigan shaxsning oilada bor yoki yo'qligi bola uchun xavfli bo'lgan kasalmand shaxslarning yo'qligi ham tekshirilishi lozim.

Fuqarolarning muomala layoqati ularning voyaga yetishi bilan, voyaga yetish esa yosh senzi bilan aniqlanadi. Amaldagi qonunchilik bo'yicha to'la muomala layoqatiga yetishning yosh senzi 18 yosh qilib belgilangan. Bu senz xalqaro huquq

normalariga ham to'la mos keladi¹. Chunonchi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1989-yilda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning 1-moddasida 18 yoshdan boshlab shaxslar voyaga yetgan, deb hisoblanishlari normalangan.

Oila huquqining asosiy tamoyillaridan biri – ota-onalik huquqining himoya qilinishidir. Ota-onalar o'z bolalari haqida g'amxo'rlik qilishlari, ularga ta'lif-tarbiya berishlari zarur. Ota-onalarning voyaga yetmagan bolalariga nisbatan mas'uliyati yanada ham yuqori bo'lishi nafaqat ularning qiziqishida, balki davlatning ham majburiy vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Amalda bo'lgan qonunchiligimiz bolaga tarbiya berishda ota yoki onaga kengroq imkoniyat yaratib bermaydi. Aksincha, ular voyaga yetmagan bolalariga nisbatan ota-onalik huquqlarini amalga oshirishda teng huquqqa ega ekanliklari mustahkamlab qo'yilgan. Agar shunday vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda, ish sud tartibida ko'rilib, asosli xulosalarga binoan, bolaning manfaatlaridan kelib chiqib nizo hal qilinadi.

1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi», «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyaga va O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga binoan, bola o'z ota-onasi bilan birga yashash va ularning g'amxo'rligidan foydalanish huquqiga egadir. Ammo hayotda ba'zi sabablarga ko'ra bola ota-onasi g'amxo'rligidan ma'lum muddatga mahrum bo'lib qolishi mumkin. Odadta, vasiylik va homiylik qisqa muddatga emas, balki bola ma'lum yoshga yetgunga qadar tayinlanadi. Ushbu holat umumiy qoidadan mustasno bo'lib, bolaga nisbatan qisqa muddatga, uning ota-onasi qaytguniga qadar muddatga vasiy va homiy tayinlanishini nazarda tutadi. Lekin ota-ona bolalarini qarindoshlari yoki boshqa yaqin kishilarini ixtiyorida qoldirsalar, bolalarga vasiylik yoki homiylik tayinlash shart emas.

¹ Bu shu bilan izohlanadiki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasiga binoan O'zbekiston xalqi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan oladi. Binobarin, deyarli barcha qonun hujjalarda xalqaro huquq normalarining ustunligi e'tirof etiladi.

Bolalar tarbiyasi uchun qonun yoki maxsus hujjat bilan mas'ul shaxs bo'lishi talab qilinar ekan, ota-onalari qaramog'idan mahrum bo'lgan hamda hali bolalar muassasalariga joylashtirilmagan bolalarga vasiy (homiy) tayinlanishi lozim bo'ladi. Vasiy (homiy) tayinlanishi bilan ushbu shaxsga bola tarbiyasi bo'yicha huquq va majburiyatlar beriladi.

Demak, ota-onalari o'z bolasiga tarbiya berish kabi vazifasini bajara olmasa yoki bajarmasa vasiylik va homiylik organlari bu bolaga nisbatan vasiylik (homiylik) belgilab, uning oilada tarbiyalanishini ta'minlab berishi lozim.

Voyaga yetmagan shaxslarning qonuniy vakillari bo'lib birinchi navbatda ota-onalari va farzandlikka oluvchilar, vasiylar va homiylar bo'lishi mumkin. Farzandlikka oluvchilar, vasiylikka va tarbiyaga oлган ota-onalari to'la muomala layoqatiga ega bo'lishlari qonun asosida talab qilinadi. Bolani ota-onasidan olib qo'yish, ularni ota-onalik huquqididan mahrum qilish va boshqa holatlar bolaning uy-joyga nisbatan bo'lgan mulk huquqini bekor qilmaydi. Ota-onanining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolaning yashash joyi vasiylik va homiylik organi orqali hal qilinadi.

Ma'lumki, qonunchiligidan tarbiya berishning aniq shakllari ko'rsatilmagan bo'lib, ularning ifodasi bolalarning ma'naviy kamol topishida, ularning shaxs sifatida shakllanishida, jamiyatdagi o'mi va boshqalarda ko'rindi. Ammo tarbiya usulini tanlashda bolaning fikri hamda vasiylik va homiylik organining tavsiyalari e'tiborga olinishi lozim. Bolaning fikrini e'tiborga olishda uni yoshining ahamiyati yo'q, muhimmi, bola o'z fikrini erkin ifodalay olsin. Vasiylik va homiylik organining fikri ko'proq tavsiyaviy shaklda bo'lib, bolani tarbiyalashning maqbul usullarini tanlashga yordam beradi.

«Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya»ga binoan, voyaga yetmagan bolalar nafaqat shaxsiy huquqlarga, balki mulkiy huquq va majburiyatlarga ega ekanliklari ham belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida belgilanishicha, ota-onalari va voyaga yetmagan bolalar o'rtasida mulkiy chegaralar o'rnatilgan. Shu bilan birgalikda, bola ota-onasi tirikligi vaqtida

uning mulkiga nisbatan mulkdor bo'la olmasligi va o'z navbatida ota-onada bolaning mulkiga nisbatan ham mulkdor bo'la olmasliklari belgilab qo'yilgan. Lekin oilaning boshqa a'zolari (aka-ukalar, opa-singillar va boshqalar) bilan munosabatlari berilmagan. Ota-onada va bolalar o'rtasida bir-birlarining mulkiga egalik qilish va foydalanish o'zaro rozilik bilan amalga oshiriladi.

Oilaviy munosabatlarda olti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan kichik yoshdagagi bolalar quyidagilarni mustaqil ravishda amalga oshirishlari mumkin. Ya'ni:

- mayda maishiy bitimlar tuzish;

tekin manfaat ko'rishga qaratilgan, notarial tasdiqlashni yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlarni;

- qonuniy vakil yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxslar tomonidan muayyan maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan mablag'larni tasarruf etish borasidagi bitimlarni vasiy yoki homiysining rozilisiz amalga oshirishi belgilab qo'yilgan. Barcha turdagи boshqa bitim va shartnomalarni ularning nomidan ota-onalari, farzandlikka oluvchilar, vasiy yoki homiylari tuzadilar. Aksari hollarda, qonunda belgilanganidek, voyaga yetmagan bolalarning nomidan ota-onalarining shartnomalar tuzishlari uchun vasiylik va homiylilik organining roziligi talab qilinadi. Ammo rozilik bo'lishi bilan birgalikda boshqa hollarga ham e'tibor qaratiladi. Vasiylik va homiylilik organining roziligi bo'lsa ham bola mulkiy zarar yetkazsa, shartnoma haqiqiy emas, deb topilishi mumkin.

Kichik yoshdagagi bolalar yetkazgan zararlari uchun javobgar bo'lmaydilar. Shu bilan birgalikda ular o'zlarini tuzgan shartnomalar uchun ham javobgar bo'lmaydilar. Bular yuzasidan javobgarlik ota-onada, farzandlikka oluvchilar yoki vasiylar zimmasida bo'ladi. Kichik yoshdagagi bolalar o'z ayblari yo'qligini isbotlay olsalar, bu yerda hech kim javobgar bo'lib hisoblanmaydi.

Voyaga yetmaganlar tuza oladigan bitimlardan boshqa bitim va shartnomalar ota-onada roziligi bilan tuzilishi mumkin. Ammo ayrim bitimlarni tuzish uchun ota-onalar roziligi, vasiylik va homiylilik organining ruxsati bilan amalga oshiriladi. Masalan,

mulkni ayriboshlash yoki hadya qilish, ijaraga berish, tekin foydalanish va garovga qo'yish, mulkni bo'lish yoki boshqa mulk bilan bog'liq bo'lgan barcha xatti-harakatlar nazarda tutiladi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, demak, birinchi navbatda vasiylik va homiylik organining roziligi olinib, so'ngra ota-onalroq qilinadi.

O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar o'zlarini mustaqil ravishda hadya qiluvchi va hadya oluvchi sisfatida qatnashib, shartnomani o'z stipendiyalari, ish haqlari va qonunda nazarda tutilgan boshqa daromadlari miqdorida tuzishlari mumkin. Lekin ular mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ashyolarni tasarruf qilish huquqiga ega emaslar. Bunday bitimlarni amalga oshirishlari uchun ular o'zlarining qonuniy vakillarining roziliklarini olishlari lozim. Chunki hadya ularning sog'lig'iga zarar yetkazishi, yashirin daromadlarga ega bo'lishga olib kelishi, pirovardida ularni huquqlariga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Ayrim shaxslarga hadya shartnomasini tuzishda rad qilish va chegaralash qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 993-moddasida ko'rsatilganidek, yosh bolalar tomonidan yetkazilgan zarar uchun ularning ota-onalari yoki vasiylari yoxud zarar yetkazilishi paytida mazkur yosh bola qaysi tarbiya muassasi, o'quv yoki davolanish muassasi nazoratida bo'lsa, shu tashkilot javobgar bo'ladi. Agar 14 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki vasiylari zarar ularning aybi bilan yetkazilganligini isbotlay olmasalar, bu holda ular o'n besh yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan bola tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladilar. O'smirlar, ya'ni o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan, voyaga yetmagan shaxslar tomonidan yetkazilgan zarar uchun ularning homiyllari yoki ular ustidan nazorat olib borishga majbur bo'lgan tashkilotning javobgarligi mavjud. Fuqarolik kodeksining 994-moddasida ko'rsatilishicha, o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan, voyaga yetmagan o'smirlar o'zi tomonidan yetkazilgan zarar uchun umumiy asoslarda javobgar bo'ladi. Agar yetkazilgan zararni to'lashlik uchun voyaga yetmagan o'smirning yetarli mulki bo'lmasa, zararni to'laligicha yoki

uning yetmagan tegishli qismi ota-onalari yoki vasiysi tomonidan, agar ular zarar o'zlarining aybi bilan yetkazilmaganligini isbotlay olmasalar, to'lanishi lozim. Ammo bunday hollarda maktablar, kasalxonalar va shu kabi tashkilotlar javobgarlikka tortilmasligi fuqarolik qonunchiligidagi belgilab qo'yilgan.

Oilaviy munosabatlarda ota-onalar va voyaga yetmagan bolalar bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal qilish hamda voyaga yetmaganlarning shaxsiy hamda mulkiy huquqlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatilgan.

Vasiylik va homiylik organlari bo'lib, xalq ta'limi bo'limlari, ijtimoiy ta'minot bo'limlari hamda sog'liqni saqlash bo'limlari hisoblanadilar.

Vasiylik va homiylik nazoratida bo'lgan voyaga yetmagan shaxslarning huquqlari shaxsiy va mulkiy huquqlarga bo'linadi.

Shaxsiy huquqlariga:

- vasiy (homiy) oilasida tarbiya olish;
- vasiy (homiy) tomonidan g'amxo'rlik olish huquqi;
- vasiy (homiy) bilan birga yashash huquqi. Alovida hollarda, vasiylik va homiylik ostida bo'lgan shaxs 16 yoshga to'lganda, vasiylik va homiylik organlari vasiylik va homiylik ostidagi shaxsning huquq va manfaatlarini himoya qilish va tarbiyasiga yomon ta'sir ko'rsatmaydi deb hisoblasa, alovida yashashga ruxsat berishi mumkin;

- ota-ona va boshqa qarindoshlar bilan muloqotda bo'lish huquqi, quyidagi holatlarni istisno qilganda, ya'ni ota-ona ota-onalik huquqlaridan mahrum qilinganda. Agar ota-onalar ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsalar, vasiy va homiylar ota-ona bilan muloqotda bo'lishlari bola manfaatlariga zid keladi deb hisoblasa, ota-ona bilan ko'rshib turishga yo'l qo'ymasligi mumkin;

- bolaning manfaatlariga tegishli bo'lgan har qanday masala hal qilinayotganda o'zining fikrini bayon qilish huquqi, shu bilan birligida sud yoki ma'muriy tartibda ish yuritilayotgan bo'lsa, ularda qatnashish huquqlari kiradi.

Mulkiy huquqlariga esa quyidagilar kiradi:

- bolalarga beriladigan aliment, pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy to'lovlarga nisbatan huquqlar;

— turar-joyga nisbatan mulk huquqi yoki turar-joydan foydalanish huquqi;

— navbatdan tashqari turar-joy olish huquqi vasiy va homiy nazoratiga yetib kelgan, agar ilgari vasiy va homiy nazorati ostida bo'lgan shaxsda turar-joyga nisbatan mulk huquqi yoki foydalanish huquqi bo'lmasa;

— vasiylik va homiylik ostidagi shaxslar tomonidan ishlab topilgan, hadyaga olingan, meros tariqasida o'tgan va boshqa mulklarga nisbatan bo'lgan huquq;

— bola egaligidagi bo'lgan mulkka nisbatan tasarruf etish kabi huquqlar kiradi.

Bundan tashqari, Fuqarolik kodeksi bo'yicha 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar:

— o'z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini tasarruf etish;

- fan, adabiyot yoki san'at asarining, ixtironing yoxud o'z intellektual faoliyatining qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa natijasi muallifi huquqini amalga oshirish;

- mayda maishiy bitimlarni (Fuqarolik kodeksining 29-moddasi) tuzish kabilardan tashqari boshqa bitimlarni o'z ota-onalari, farzandlikka oluvchilar yoki homiylarning yozma roziligi bilan tuzadilar.

14 yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlar (kichik yoshdagagi bolalar) uchun bitimlarni ularning nomidan faqat ota-onasi, farzandlika oluvchilari yoki vasiylari tuzishi mumkin, quyidagilar bundan mustasno:

- mayda maishiy bitimlar;

- tekin manfaat ko'rishga qaratilgan, notarial tasdiqlashni yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlar;

- qonuniy vakil yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan muayyan maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan mablag'larni tasarruf etish borasidagi bitimlar.

Oila kodeksiga binoan, ota-onaloyaga yetmagan bolalarini ta'minlashga majbur ekanliklari, ularni ta'minlashning tartibi va shakli ota-onaloyaga yetmagan bolalarini ta'minlash

majburiyatini bajarishdan voz kechsa, ularni ta'minlash uchun xarajatlar sud tartibida amalga oshiriladi. Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori Oila kodeksining 99-moddasida qat'iy belgilab qo'yilgan.

1989-yil noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 44-sessiyasida «Bola huquqlari to'g'risida» Konvensiya qabul qilingan¹. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi bu Konvensiyaga qo'shilish haqida qaror qabul qildi. Ushbu Konvensiyada belgilanishicha, bolaga qonun va boshqa vositalar bilan unga jismoniy, ma'naviy, ruhiy, aqliy, ijtimoiy munosabatlarda rivojlanish uchun adolatli sharoitlar va maxsus himoya bilan ta'minlanishi belgilab qo'yilgan. Shu yerda o'rinni savol tug'iladi: xo'sh, ushbu majburiyatlarni kim amalga oshiradi? Nazarimizda, ushbu vazifalarni oilada ota-onal amalga oshirishi lozim. Oila kodeksida ham «ota-onal o'zining voyaga yetmagan bolalarning sog'lig'i, jismoniy, ruhiy yetuklikka erishishi haqida qayg'urishi kerak»ligi belgilangan. Shuningdek, ular bolalarni himoya qilish, ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat bilan ham ta'minlashlari zarur. Ushbu majburiyatlarni bajarish uchun ota-onaning sharoiti, oilaviy ahvoli yetarli darajada bo'lishi kerak. Shu o'rinda davlatning ham roli alohida ekanligini eslatib o'tish lozim. Chunki davlat onalik va bolalikni, oila himoyasini o'z zimmasiga olgan.

Davlat BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasiga qo'shilar ekan, uning 27-moddasida «ishtirokchi davlatlar har bir bolaning jismoniy, aqliy, ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy kamol topishi uchun zarur hisoblangan turmush darajasiga ega bo'lish huquqini e'tirof etadilar», deyiladi. Bolalar alohida himoyaga muhtoj aholining demografik guruhi bo'lib hisoblanadi.

Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakat aholisining 70 foizidan ko'prog'ini tashkil etuvchi o'zbek jamoalarining oilalarida o'ziga xos mentalitet shakllangan. Unga ko'ra, oilada tug'ilgan va o'sib kelayotgan yosh avlodning «shaxs» sifatida shakllanish jarayoni ancha kech boshlanadi. Buning boisi,

¹ Balog'atga yetmagan bolalar huquqlariga oid xalqaro hujjalari. -T., 2002. -232 b.

«o'zbekchilik», «o'zbekona» urf-odatlar va an'analarning butun avlod qon-qoniga singib ketganligidadir. Ya'ni farzandlar bilan ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar itoatkorlikka, kollegializmga, o'zaro murosai-madoraga asoslanadi. Albatta, buning ko'plab sabab va omillari bor. Eng katta omillardan biri – Islom dini qadriyatlari bilan bog'liqdir.

Bu holat, ayniqsa, bolalarning ma'naviy dunyosida individualizm (har bir masala bo'yicha o'z qarashlariga egalik, boshqalarning ta'sirida bo'lmasslikka intilish, ma'lum ma'noda xudbinlik, boshqalar manfaatini hisobga olmasdan o'z manfaatlarini ustuvor qo'yish) xususiyatlarining yaqqol kuchayishida namoyon bo'immoqda. Bu holat ham ijobiyligi salbiy jihatlarga ega. Salbiylichi shundaki, bunda asriy bahsotalar va bolalar o'rtasidagi ziddiyat chuqurlashadi, bolalarning kattalar ta'siridan chiqishi kutilmagan, ba'zan mudhish oqibatlarga (ya'ni jinoyat olamiga) olib keladi. Ijobiyligi shundaki, bolalar kattalar, ayniqsa, ota-onalar ularga nisbatan o'z huquqlarini suiiste'mol qilishlariga yo'l qo'ymaydilar.

Onalik, otalik va bolalikni himoya qilish hozirgi kun talabidir. Ushbu himoyani ta'minlovchi chora bu voyaga yetmagan bolani tarbiyalash, u haqda g'amxo'rlik qilish, unga ta'lim berish va shu kabilar ota-onaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

IV bob. VOYAGA YETMAGANLARNING TADBIRKORLIK FAOLIYATIDAGI ISHTIROKI

Davlatimizda barcha shaxslarning, shu jumladan, voyaga yetmaganlarning tadbirkorlik faoliyatini yuritishiga ruxsat berilgan va ularning tadbirkorlik faoliyatini erkin amalga oshirishlari davlat tomonidan kafolatlangan. Voyaga yetmaganlarning tadbirkorlik faoliyati davlatimiz tomonidan kafolatlanganligi umumtan olingan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasiga asoslangan holda belgilangan. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 17-moddasiga ko'ra har bir inson yakka holda, shuningdek, boshqalar bilan bирgalikda mulkka egalik qilish huquqiga ega. Demak, voyaga yetmaganlar o'zları yakka tartibda yoki boshqalar bilan mulkka ega bo'lgan holda, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 23-moddasiga binoan, har bir inson mehnat qilish, ishni erkin tanlash,adolatli va qulay ish sharoitiga ega bo'lish, ishsizlikdan himoya qilinish huquqiga ega. Shu jumladan, voyaga yetmagan shaxslar ham yakka tadbirkor sifatida mehnat qilishi, tadbirkorlik faoliyati yo'nalishini erkin tanlashi, boshqa shaxslar bilan hamkorlikda korxona tuzgan holda tadbirkorlik faoliyatini yuritishi mumkin. Shu bilan birga voyaga yetmagan shaxslarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarda mehnat qilish huquqi ham kafolatlanadi. Mazkur huquqiy kafolatning davomi sifatida Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida har bir ishlovchi kishi o'zi va oilasi uchun insonga munosib yashashni ta'minlaydiganadolatli va qoniqarli daromad olishga, zarur bo'lganda ijtimoiy ta'minotning boshqa vositalari bilan to'ldiruvchi daromad olish huquqiga ega ekanligi belgilangan. Demak, mazkur normadan ko'rinish turibdiki, voyaga yetmagan shaxslar o'zi va oilasi uchun insonga munosib yashashni

ta'minlaydigan daromad olishi uchun tadbirkorlik faoliyatini yuritishi mumkin. Bunda voyaga yetmagan shaxslar o'zi yakka tartibdagi tadbirkor sifatida hamda boshqalar bilan korxona tuzgan holda tadbirkorlik faoliyatini yuritishga haqli.

Ko'rinish turibdiki, har qanday fuqaro, shu jumladan, voyaga yetmagan shaxslarning tadbirkorlik faoliyati naqafat ularning o'zlar uchun, balki davlat va jamiyat manfaatlari uchun hamda iste'molchilar ehtiyojini qondirish nuqtai nazardan betakror ahamiyatga ega. Chunki tadbirkorlar voyaga yetgan yoki yetmagan bo'lishidan qat'i nazar, ham davlat iqtisodiyotiga, ham fuqarolarning farovon turmush tarzini kechirishiga o'zlarining betakror hissalarini qo'shadilar. Tasavvur qilib ko'raylik, aynan tadbirkorlar davlatimiz bozorini barcha muhim mahsulotlar bilan to'ldiradilar, buning natijasidan davlat iqtisodiyoti rivojlanadi, eng muhimi esa davlatimiz hududida yashaydigan har bir fuqaro o'ziga kerakli mahsulotni sotib olishi mumkin va bu bilan ularning barcha ehtiyojlari qondiriladi. Bundan tashqari, tadbirkor o'z faoliyati natijasida tushgan foydadan turli soliqlar to'laydi. Bu soliqlar esa davlat budjetiga tushib, ijtimoiy himoyaga muhtoj qariya va nogironlarga nafaqa sifatida to'lanadi. Ko'rinish turibdiki, tadbirkorlik faoliyati jamiyatimiz uchun ham tomonlama zarur bo'lgan sohadir. Shuning uchun ham biz voyaga yetmaganlarning tadbirkorlik faoliyati xususiyatlariga to'xtalib o'tishdan oldin, umumiy tarzda tadbirkorlik faoliyati nima va tadbirkor kim degan savollarga javob topishimiz kerak. Chunki bo'lajak tadbirkor sifatida barcha yoshlar o'zlarining kelajakda qanday faoliyat yuritishlari haqida ma'lumot olishi bilan birga, davlatga imkon qadar foya keltirish yo'llari haqida bilimlarga ham ega bo'lishilari kerak. Shuning uchun ham dastlab voyaga yetmaganlar uchun tadbirkorlik faoliyatining umumiy belgilari va tavsifini yoritib berishga harakat qildik.

Ma'lumki, tadbirkorlik o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik faoliyati yaxshi huquqiy baza mavjud bo'lgan taqdirda ham, zarur sharoit mavjud bo'lmasa, yetarli darajada rivojlanmaydi.

Demak, tadbirkorlik bilan taraqqiyot hamisha yonma-yon borgan. Taraqqiyot iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarda tadbirkorlikning turli shakllarda rivojlanishini taqozo etgan. Tadbirkorlikning rivojlanishi bozor iqtisodiyotining shakllanib borishi bilan bog'liq.

Ammo bozor munosabatlari birdaniga to'liq shakllanmaydi. U asta-sekin rivojlanib boradigan jarayon bo'lib, aql bilan ish tutishni taqozo etadi. Respublikamizda bu borada bosqichmabosqich iqtisodiy islohotlar o'tkazilib borilishi bunga yorqin misol bo'ladi.

Iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishidan asosiy maqsad bozor munosabatlarini tashkil etish, bozorni turli mollar va xizmatlar bilan to'ldirib, iste'molchilarga tovarni tanlab xarid qilishlariga keng imkoniyatlar yaratib berish, natijada xalqning turmush sharoitini farovonlashtirishdan iboratdir. Bunda tadbirkorlik o'ziga xos o'ringa ega. Chunki tadbirkorlik qanchalik rivojlansa, huquqiy tomondan himoya qilinsa, moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish ham shunchalik taraqqiy etadi.

Bozor iqtisodiyotining mohiyati har bir fuqaroning ijodiy va mehnat faoliyatini takomillashtirish, boqimandalikka xotima berish, tashabbuskorlik va tadbirkorlikni rivojlantirish, mulkka egalik tuyg'usini kuchaytirish, unga ishlab chiqarishga bo'lgan hukmronlik hissini singdirish, ishlab chiqarishni iste'molchi manfaatiga bo'ysundirish, ularning mahsulotga bo'lgan talabini aniq hisobga olib, shunga yarasha tezlik bilan ish tutish, xo'jalikda tejamkorlikka erishish, xarajatlarni kamaytirish, talontoroj va suiiste'molchilikka qarshi kurash, yangiliklarga nisbatan sezgir bo'lish hamda fan-texnikaning so'nggi yutuqlarini dadil va g'ayrat bilan joriy etishdan iborat. Mana shular hayotga tatbiq etilgandagina xalqimiz har qanday iqtisodiy tanglikdan tezroq chiqib olishi va farovon hayot kechirishi uchun imkoniyat yaratiladi. Bu jarayon o'z navbatida har bir fuqarodan tadbirkorlik bilan ish ko'rishni, tadbirkor faoliyatini tobora rivojlantirib borishni taqozo etmoqda.

Respublikamizda tadbirkorlikning asosiy maqsadi iqtisodiyotning ko'p qirrali yo'nalishini ta'minlash, ishlab chiqarishni

iste'molchilarning talab va ehtiyojiga moslash, taqchillikni, qimmatchilikni engib o'tish, fuqarolarning iqtisodiy faoliyat sohasidagi erkinligani ta'minlash, har bir kishining shaxsiy qobiliyatini qadrlash va tadbirkorlik sohasidagi ularning boy imkoniyatlari ochilishiga, yuksak unumidorlik va tashabbuskorlik bilan mehnat qilishlariga shart-sharoit yaratib berishdan iborat.

Tadbirkorlik – biznesmenlik faoliyati asosan XVIII asrda paydo bo'lib, ko'pincha «mulkdor» degan tushuncha bilan teng tushunilgan. Taniqli iqtisodchi A.Smit biznesmenni foyda olish uchun biron bir tijorat g'oyasini amalga oshirish maqsadida tavakkalchilik bilan ish ko'rvuchi mulkdor, deb ta'riflaydi.

Davlatimizda tadbirkorlik faoliyati deganda tadbirkor fuqarolar va korxonalarning tavakkal qilgan holda foyda olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyati tushuniladi. Demak, tadbirkor kim degan savolga asosiy maqsadi foyda olishga qaratilgan fuqaro va korxona, deb aytish mumkin. Biroq foyda olishni ko'zlagan har qanday fuqaro yoki korxonani ham tadbirkor deb bo'lmaydi. Bunday fuqaro va korxonalar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishidan oldin tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tishi lozim. Agar tadbirkorlik faoliyati ma'lum bir ruxsatnoma (litsenziya) olishni talab etsa, bunday faoliyatni boshlashdan oldin tadbirkor tegishli davlat idorasidan ruxsatnoma olishi kerak.

Bulardan tashqari, Fuqarolik kodeksining umumiyligi qoidalariga ko'ra, tadbirkor huquq layoqati va muomala layoqatiga ega bo'lishi kerak. Ya'ni fuqaro tadbirkorlik faoliyatini boshlashdan oldin bu borada huquq va burchlarga ega bo'lish layoqati (huquq layoqati) hamda bunday huquq va burchlarni amalga oshira olish layoqati (muomala layoqati)ga ega bo'lishi kerak. Fuqarolarning huquq layoqati u tug'ilgan paytdan boshlab vujudga kelsa, ularning muomala layoqati u voyaga yetgach, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lganidan keyin yuzaga keladi. Demak, fuqaro tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi uchun voyaga yetgan bo'lishi kerak. Biroq ayrim holatlarda o'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxslar ota-onasining roziligi bilan tadbirkorlik faoliyatini yuritishi mumkin. Bunda o'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxslar to'la

muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi mumkin. Bunday holat esa fuqarolik huquqida «emansipatsiya» deb nomlanadi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan o'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxsni to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilish (emansipatsiya) ota-onasining (farzandlikka oluvchining, vasiy yoki homiying) roziligi bilan yo'l qo'yiladi. Bunday rozilik bo'lmaganda esa emansipatsiya sudning qarori bilan amalga oshirilishi mumkin.

Demak, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan asosiy maqsad daromad (foyda) olishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tadbirkor o'z faoliyatini bozor talablariga moslashtirgan holda rejalashtiradi va sotib oluvchilar uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqaradi, bu bilan raqobatlashuvda faol qatnashishga harakat qiladi. Iqtisodiy manfaat nuqtai nazaridan birinchi galda foyda olish bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyatining natijalarini umumlashtiruvchi asosiy ko'rsatkich ham foydadir. Foyda qancha ko'p olinsa, mehnatga nisbatan rag'batlantirish, qiziqish ham shuncha baland bo'ladi, tadbirkorlikda yuqori samaralarga erishiladi.

Tadbirkor foyda olish maqsadida o'z faoliyatini bozor talablariga moslashtiradi, xaridorgir mahsulot ishlab chiqaradi. Agar mahsulotga talab o'zgarsa, darhol shu talabga ko'ra ishlab chiqarish jarayonini unga moslashtiradi. Ya'ni tadbirkor xaridor uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga harakat qiladi. O'zi ishlab chiqaruvchi tadbirkorlar bilan doimo raqobatda bo'ladi. Raqobatga bardosh berish yo'lida tinmay izlanadi, iqtisodiy imkoniyatlarni har tomonlama oshirib boradi.

Tadbirkor o'z faoliyatini yuritish natijasida oladigan umumiylar daromadidan ma'lum qismini soliqlar va boshqa to'lovlar uchun ajratadi. O'z navbatida bunday soliq va to'lovlar boshqa shaxslarga oylik maoshi, nafaqa puli sifatida to'lanadi. Bu esa tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy-foydali mohiyatini ham namoyon etadi. To'lovlamani to'lashdan tadbirkor ixtiyorida qolgan daromad sof foyda sifatida to'la-to'kis uning tasarrufiga o'tadi. Sof foydadan qaysi maqsadda foydalanishni tadbirkor o'zi mustaqil ravishda hal qiladi.

Tadbirkorlikdan kutiladigan maqsad, yuqorida aytilganidek, daromad olishdir. Daromad qanchalik ko'p bo'lsa, tadbirkor o'z faoliyati natijasidan shuncha mamnun bo'ladi. Bu hol yangi-yangi izlanishlarga chorlaydi, yuqori iqtisodiy samaralarga erishish yo'lida tinimsiz mehnat qiladi. Mazkur mehnat natijasi o'z navbatida faqat tadbirkorning foydasi, boyligi bo'lmay, balki xalqimizning ham boyligi hisoblanadi. Chunki tadbirkor o'z xo'jaligini tashkil etishi natijasida olgan umumiy daromadidan qonunda belgilangan miqdorda soliq to'laydi, boshqa to'lovlarini qoplaydi. Qolgani esa tadbirkorning sof foydasi hisoblanib, uning tasarrufiga o'tadi. Tadbirkorlik aksariyat hollarda mulk bilan bog'liq holda rivojlanadi. Tadbirkor uni tashkil etish va rivojlantirish maqsadida o'zining xususiy mulkidan foydalanadi. Xususiy mulk fuqaroning qonunga muvofiq faoliyat yuritish asosida olgan sof foydasi, xususiy lashtirilgan, qonunchilik asosida, xususiy mulk deb hisoblangan boshqa mulklardan tashkil topadi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 36-moddasida har bir shaxsnинг mulkdor bo'lishi, 54-moddasida esa mulqdor mulkiga o'z xohishiga ko'ra egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi belgilangan.

Har bir fuqaroning mulkdor bo'lishi va undan foydalanishi respublikamizda bozor munosabatlarining rivojlanishiga nihoyatda katta zamin yaratadi. Shu tufayli O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqqa egaligini va huquqiy jihatdan bavaravar muhofaza etilishini kafolatlaydi», deb ko'rsatilgan. Bu qoidaning amaliyotda to'liq tatbiq etilishi natijasida respublikamiz fuqarolari turli xildagi mulklardan, shu jumladan, xususiy mulkdan ham foydalanib, tadbirkorlik faoliyatlarini birmuncha rivojlantiradilar. Natijada mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida, xalq xo'jaligining boshqa sohalarida o'tgan qisqa muddat ichida bir qator yutuqlar qo'liga kiritildi.

Shu o'rinda tadbirkorlik sohasida mulkdor duch keladigan muammolarni yechish, unga keng yo'l ochib berish, ko'plab haqiqiy mulk egalarini tarbiyalash maqsadga muvofiqdir. Birinchi navbatda, tadbirkorlikning qonuniy bazasini mustah-kamlash va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni ta'minlash kerak. Bu o'rinda shuni aytish kerakki, tadbirkorlarga va bozor munosabatlarini joriy etishga intilayotgan shaxslarga faqat huquqiy kafolat berish bilan kifoyalanib bo'lmaydi. Ularni amalga oshirish uchun ana shu huquq va kafolatlardan to'la foydalanishda shart-sharoit yaratish, ishbilarmonlar faoliyatiga qilinayotgan to'sqinliklarni bartaraf etish lozim. Xususiy tadbirkorlikni har tomonlama rivojlantirishga bugun respublikamizning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi omil sifatida qarash va qonunchilik faoliyatiga ham ana shu nuqtai nazardan yondashish darkor.

Demak, tadbirkorlik tadbirkorning o'z mulki hisobiga tashkil etiladi. Ammo tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun mulkdor, ya'ni xususiy mulk egasi bo'lib ish boshlashi shart emas. Tadbirkorlik o'zga shaxslarning mulkidan qonun doirasida foydalanish asosida ham tashkil etilishi mumkin. Bunda, tadbirkor faoliyatini mulk egasi bilan ijara shartnomasi tuzib, uning mulkidan foydalanish hisobiga tashkil etadi.

Shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri – tadbirkorning tavakkalchilik bilan ishni tashkil etishidir. Tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirayotganida, shu faoliyatdan keladigan foya ham, shuningdek, zarar ham o'z zimmasida bo'lishini aniq biladi. Zarar turli sabablar tufayli yuzaga keladi. Ayrim holda tadbirkorlik faoliyatini shaxsan o'zi tashkil eta olmasligi oqibatida ham zarar kelib chiqishi mumkin. Tadbirkor ishlab chiqargan tovari sisatsiz, raqobatbardosh bo'lmay, ayrboshlash jarayonida zarar ko'rib qolishi tufayli sinish xavfiga duch kelishi mumkin. Bunday paytda u sezgir bo'lishi, bozorni doimo kuzatib borishi, yangiliklarni tezda ilg'ab, ishlab chiqarish jarayonini ana shunga moslashtirishi zarur bo'ladi.

Bundan tashqari tadbirkorlik faoliyati tadbirkorga bog'liq bo'limgan tabiiy hodisalar, ya'ni yengib bo'lmaydigan tabiiy

kuch ta'sirida ham rivojlanmay qolishi mumkin. Tadbirkor ana shu holatlarni ham nazarda tutib o'z faoliyatini tavakkal qilib yurgizadi. O'z tadbirini oqilona ishga solib, kelib chiqadigan zarar-oqibatlaridan qo'rqlmay tavakkal qilgan tadbirkor doimo yutib chiqadi, ko'zlangan maqsadi sari ilgarilab boraveradi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirib, undan foyda yoki daromad olishi uchun ishiga talabchan, uddaburon bo'lishi kerak. Chunki o'z faoliyatida tashabbus ko'rsata olmasa, oldiga qo'ygan maqsadga erisha olmaydi. Tashabbus ko'rsatib ish yuritmagan tadbirkor raqobatga bardosh berolmay sinishi aniq. Shu tufayli u raqobatda g'olib chiqish uchun bozor sharoitiga tezroq moslashishga, ishlab chiqarish faoliyatini mustaqil belgilashga, rivojlantirishga va uyushtirishga harakat qilishi kerak. Buning uchun u o'zi ishlab chiqarayotgan tovarga, mahsulotga, ko'rsatayotgan xizmatga bo'lgan bozor talabini doimo hisobga olishi va o'z faoliyat taraqqiyotini shu asosda mustaqil rivojlantirib borishi lozim. Bu esa erkin bozor talabidan kelib chiqadi. Shu bilan birga tadbirkor bozor haqidagi ma'lumotlar va axborotlardan doimo xabardor bo'lib turish, zarur bo'lgan taqdirda o'z faoliyatiga tezda o'zgartish kiritish va bozor sharoitiga moslashgan holda ortiqcha tashvish va xaratatlarsiz faoliyat yuritishga harakat qiladi. Aks holda u raqobatga bardosh bera olmasligi va bankrotlikka uchrashi mumkin.

Tavakkalchilikning yana bir ko'rinishi tadbirkor o'z faoliyatining natijalari va zimmasiga olgan majburiyatları yuzasidan shaxsan o'zi javobgar bo'lishidan iborat. Fuqarolik kodeksining 25-moddasiga muvofiq tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi fuqaro o'z majburiyatları yuzasidan o'ziga tegishli butun mol-mulki bilan javob beradi. Mazkur kodeksning 48-moddasiga muvofiq tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi korxona (yuridik shaxs) ham o'z majburiyatları yuzasidan o'ziga tegishli butun mol-mulki bilan javob beradi.

Demak, tadbirkorlik mulkiy javobgarlikka asoslanadi. Barcha tadbirkorlar iqtisodiy mustaqil va o'zaro munosabatlarda teng huquqlidir. Shunday ekan, o'z mulkiga ega bo'lgan tadbirkorlar yo'l qo'ygan qonunbuzarliklari uchun mulki bilan javob beradi.

Tadbirkorlikning eng muhim belgisi bu tashabbuskorlikdir. Aslida tadbirkorlik so'zning o'zagi tashabbuskorlik, degan ma'noni anglatadi. Agar tadbirkor iqtisodiy faoliyatda tashabbus ko'rsata olmasa, u o'z oldiga qo'yilgan maqsadga erisha olmaydi, raqobatga bardosh berolmaydi va natijada bankrot bo'lishi muqarrar.

Bozor sharoitida tadbirkor o'z faoliyatini o'zi mustaqil tanlaydi, belgilaydi, rejalashtiradi va uyuştiradi. Uning faoliyati boshqalar tomonidan, ayniqsa, yuqoridagi tashkilotlar tomonidan rejalashtirilmaydi. Tadbirkor ishlab chiqarilayotgan mahsulotga, bajarilayotgan ishga, ko'rsatilayotgan xizmatga bo'lgan talablarni hisobga olib, taraqqiyot istiqbollarini o'zi shaxsan belgilaydi. Bunday vazifani bekamu-ko'st amalga oshirish undan barcha holatda yuqori malakali qobiliyat va faol tashabbus ko'rsatishni talab qiladi. Tadbirkorga xohlagan faoliyat bilan shug'ullanishda tashabbus ko'rsatish uchun erkinlik berilgan, bunday erkinlikdan qonun bilan taqiqlanmagan barcha holatlarda foydalanish mumkin.

G'arbda ham biznesga foya olish maqsadini ko'zlab, xo'jalik yuritish san'ati, ijodkorlik, tashabbusning erkin namoyon bo'lishi, navatorlik (yangilik yaratuvchilik), xavf-xatarga doim tayyor turish kabi ko'p qirrali faoliyat deb qaraladi. Bizning tafakkurimizda ham tadbirkorlikka nisbatan shu singari tushuncha paydo bo'lmoqda. Tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan shaxslardan mahorat, zehn, aql va xushyorlik talab etiladi va bu xislatlar muhim ahamiyat kasb etadi, albatta. Shu ma'noda tadbirkorlik foya olish maqsadidagi mustaqil faoliyat sifatida ta'riflanadi.

Demak, tadbirkorning barcha harakatlari asosan, bozor imkoniyatlarini tahlil qilish, undan foydalanish, novatorlik g'oyalarini amalga oshirishdan iborat bo'ldi.

Tadbirkor faoliyatiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri shuki, tadbirkorlik faqat qonun doirasida bo'lishi kerak. Bu talab esa har bir tadbirkor respublikamizda amalda bo'lgan qonunlarga mos faoliyat bilan shug'ullanishga haqli ekanligini anglatadi. Tadbirkor biron foya yoki daromad olish maqsadida tovar ishlab chiqarish yoki maishiy qulaylik yaratish borasidagi

faoliyat bilan shug‘ullanar ekan, uning faoliyati faqat qonun doirasida bo‘lishi kerak.

Tadbirkor qonunda taqiqlanmagan har qanday faoliyat bilan shug‘ullanishi mumkin, unga tegishli mol-mulk asosida qonunda taqiqlanmagan faoliyatni amalga oshirish uchun erkinlik beriladi, sharoit va kafolatlar yaratiladi. Tadbirkor o‘z mol-mulki asosida, uning qaysi shakldan iborat bo‘lishidan qat’i nazar, turli xo‘jalik faoliyatini erkin tanlash va erkin amalga oshirish huquqiga ega. Asosiy masala shundan iboratki, bunday faoliyat qonunga zid bo‘lmasligi va qonun bilan taqiqlanmagan bo‘lishi lozim.

Mulkchilikning hamma shakllarining, xo‘jalik faoliyatining barcha turlarining teng huquqlilik asosida amal qilishi tadbirkorlikning asosiy talablaridan hisoblanadi. Demak, mulkchilikning qaysi shakliga asoslanmasin yoki qaysi shakldagi va turdagи xo‘jalik yuritish faoliyatidan iborat bo‘lmasin, tadbirkorlikning tashkil topishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan sharoit va tadbirlarni amalga oshirishda teng huquq va sharoit tug‘dirib beriladi. Bunday tenglik tadbirkorlarning iqtisodiy va huquqiy mustaqilligidan darak beradi. Ularning har biri o‘ziga tegishli alohida mol-mulkka ega, mulkiy munosabatlarda o‘z nomidan mustaqil ishtirok etadilar, xo‘jalik faoliyatini yuritishda biri ikkinchisiga qaram emas, o‘z majburiyatlari va qarzları yuzasidan, shuningdek, o‘z faoliyatining natijalari bo‘yicha o‘zlar javob beradilar.

Tadbirkorlikda o‘zaro hamkorlik, javobgarlik va erkin raqobatlashuv muhim ahamiyatga ega. Bunday sharoitni yaratishda va ta’minlashda davlat o‘z zimmasiga vazifa oladi. Bunday sharoit mavjud bo‘lishi uchun tadbirkorlar ham o‘z faoliyatini yuritishda bir-birlariga beg‘araz yordam berishlari, vijdonan vaadolatli munosabatda bo‘lishlari, o‘z huquqlarini amalga oshirishda jamiyatning ma’naviy tamoyillariga amal qilishlari va ishbilarmonlik axloqiy qoidalarini hurmat qilishlari lozim.

Tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi shaxslar o‘z faoliyatini amalga oshirishda FKning 9-moddasiga amal qilishlari zarur. Ushbu moddaning 4-qismiga binoan «Fuqarolar va yuridik

shaxslar o‘z huquqlarini amalga oshirishda jamiyatning ma’naviy tamoyillari va axloqiy normalarini hurmat qilishlari, tadbirkorlar esa – ish odobi qoidalariiga ham riosa etishlari kerak»ligi belgilanadi.

Qonunlarga riosa qilish bilan birga tadbirkorlik faoliyatiga qadam qo‘yayotgan har bir shaxs, tadbirkorlik odobi (etikasi)ga riosa qilishi kerak. Tadbirkorlik odobi o‘zaro tadbirli ish munosabatlarda halol va sof vijdonli bo‘lish bilan belgilanadi. Chunki tadbirkor ko‘plab shaxslar bilan turli munosabatda bo‘ladi. Shuning uchun ular halol va sof vijdonli bo‘lishlari lozim.

Tadbirkorlikning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri – tadbirkorlar egallagan iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy mavqedan qat‘i nazar, ularning o‘zaro munosabatlarda tenglidir. Tadbirkorlar o‘z faoliyatini boshlash bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish vositalarini xarid qilish, ular bilan ta’minlanish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotib, foyda (daromad) olishda, shuningdek, turli ishlami bajarishda o‘zga, ya’ni xizmatdan foydalanuvchi jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan o‘zaro teng huquqli munosabatda bo‘ladilar.

Tadbirkorming iqtisodiy mustaqilligi va teng huquqliligi uning erkin raqobatlashuvi uchun zamindir. Tadbirkor qonun bilan taqiqlanmagan holda, xo‘jalikning barcha sohasida o‘z faoliyatini erkin ravishda raqobatlashuv tamoyili asosida amalga oshirishi mumkin.

O‘tmishda, jamiyatning iqtisodiy negizini faqat sotsialistik mulkchilik tashkil qilgan davrda raqobatchilikka yo‘l qo‘yilmas edi. Raqobatchilikka, xususiy mulkka kapitalistik ishlab chiqarishga asoslangan hodisa, deb baho berilar edi. Endilikda mulkchilikning xilma-xil shakllari uchun ularning iqtisodiy va huquqiy jihatdan teng ravishda rivojlanishiga sharoit tug‘ildi. Shu tufayli, tadbirkorlik faoliyatiga keng imkoniyat yaratildi. Tadbirkorlikning raqobatlashuv tamoyili asosida rivojlanishi bozor munosabatlarini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan uslubdan, vositadan iboratdir. Raqobatlashuv aholi uchun kerakli mahsulot va tovarlarni tezda ishlab chiqarishga va bozorga yetkazishga, tadbirkorlik faoliyatining turli shakllarini

vujudga keltirish va rivojlantirish, ishlab chiqarishda samardorlikni oshirish va qolaversa, jamiyatning iqtisodiy manbaini mustahkamlashga yordam beradi. Lekin raqobatlashuv adolatlari, insofli bo'lishi zarur. Raqobatlashuv natijasida ba'zi bir tadbirkorlar bozor sharoitida ustunlikni egallab, boshqa tadbirkorlarni og'ir va mushkul iqtisodiy holatga tushirib qo'yishlariga, raqobatni cheklashga qaratilgan harakatlarga yo'l qo'ymaslik kerak.

O'zaro raqobat uchun berilgan erkinlik tadbirkorlik va ishbilarmonlik qobiliyatlarini bo'g'ib qo'yishga qaratilgan bo'lmasligi, birovlarining xo'jalik faoliyatiga qarshi yo'naltirilmasligi kerak.

Tadbirkorlikning iqtisodiy manbalari xususiy mulk shaklidan tashkil topadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasiga muvofiq, har kim mulk huquqiga ega. Ushbu Asosiy Qonun-Konstitutsiyaning 53-moddasiga muvofiq, O'zbekistonning iqtisodiy negizini har xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Tadbirkorlik barcha mulk shakllarining teng huquqliligiga asoslanadi.

Tadbirkor mol-mulkda foydalanishning yuqorida qayd etilgan shakllari va usullaridan foydalanish yo'li bilan o'z faoliyatini amalga oshiradi. U faqat o'ziga tegishli xususiy mulk bilan cheklanmay, balki shuning bilan bir qatorda O'zbekiston va ajnabiylar davlat fuqarolarining va yuridik shaxslarining mol-mulkini jalb etish, birgalikda faoliyat yuritish, qo'shma korxonalar tashkil etish yo'li bilan turli xo'jalik faoliyati yuritish uchun davlat va jamoat tashkilotlarining mol-mulklaridan foydalanish kabi harakatlarni birgalikda bajarib, o'z tadbirkorlik faoliyatini samarali amalga oshiradi.

Tadbirkorlik shaxsan mulk egasining o'zining mehnatda qatnashishiga yoki yollanma mehnat qo'llashga va shuningdek, o'zining hamda yollanma mehnatning birgalikda qo'shib amalga oshirilishiga asoslangan bo'lishi mumkin.

Tadbirkorlik mulk egasining ishlab chiqarish jarayonida, ya'ni o'z faoliyatini amalga oshirishda bevosita o'zining ishtirok etishi – bu tushunarli masala. Lekin uning yollanma mehnat

asosida, ya’ni boshqa fuqarolarning mehnatidan foydalanish yo’li bilan faoliyat yuritish haqidagi qoida ijtimoiy hayotda va shuningdek, qonunchilik sohasida yangi voqeadir. Chunki o’tmishda fuqaroga yollanma mehnatdan foydalanishga yo’l qo’yilmagan, bunday huquq korxona va tashkilotlarga berilgan. Fuqarolarga yollanma mehnatni qo’llash huquqi birinchi marta O’zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to‘g’risida»gi Qonunida xususiy römulkchilik joriy qilinishi bilan vujudga keldi.

Hozirgi paytda mamlakatimizda tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Chunki shu orqali iqtisodiy munosabatlar rivojlantirilmoqda, qo’shma korxonalar va kichik korxonalar tashkil qilinmoqda.

Agar biz bozor iqtisodiyoti munosabatlariga mos keladigan kasblarni puxta egallasak, bozor munosabatlarining shakllanishini ham tez hal eta olamiz.

Bunga misol tariqasida dastlabki tadbirkorlikni olaylik. Bu chakana savdo, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat sohalaridagi tadbirkorlik bo’lib, natijada bozorimiz ko’plab mahsulot bilan to’ldirildi. Hozirgi paytda ichki bozorimiz barqarorlashib turganligida ham tadbirkorlikning o’mi borligini izohlashga hojat yo’q.

Respublikamiz qonunlari bilan tadbirkorlarga keng imkoniyatlar berilgan. Ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinmoqda. Shu sababli tashabbus ko’rsatish amaldagi qonunlar doirasida, tadbirkorlik faoliyati esa o’z Ustavi yoki Nizomi doirasida bo’lishi kerak.

Tadbirkor uchun eng muhimi tadbirkorlikning shakllarini to‘g’ri tanlay bilish. Shunday qilingandagina, tadbirkorlik munosabatlari rivojlanadi va barqarorlashadi.

Bu borada tadbirkorlar ishlab chiqarish va xo’jalik faoliyatlarning har xil turdan iborat bo’lishidan va ularning tashkil topishi turli shakldagi römulkchilikka asoslangan bo’lishidan qat’i nazar, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlарining himoya qilinishiga kafolat beriladi.

Tadbirkorlik faoliyati mahsulot ishlab chiqarishdan, uni sotishdan, olishdan, xarid qilishdan, turli ishlarni bajarishdan, masalan, pudrat shartnomasi bo’yicha turar joy yoki inshooat

qurish, xizmat ko'rsatishdan, ya'ni yuk va passajirlar tashishdan, turli moddiy-maishiy xizmatni bajarishdan iborat bo'lishi mumkin. Tadbirkorlikning ushbu va boshqa turlari har xil shakldagi mulkchilikka asosan amalga oshirilishidan qat'i nazar, ular qonun oldida teng huquqlidir.

Davlatimizning qonunlariga ko'ra, turli shakldagi tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi uchun teng iqtisodiy sharoit va ularni himoya qilishni teng huquqiy kafolatlar bilan ta'minlashni davlat o'z zimmasiga oladi. Bu birinchi galda, Asosiy Qonun – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'z aksini topdi. Konstitutsiyaning 53-moddasiga binoan «...Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqlilagini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi».

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatamizda tashkil etilgan tadbirkorlik tizimini rivojlantirish uchun barcha zaruriy chora-tadbirlar ko'rilmoxda. Bu esa o'z navbatida tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni yanada rivojlantirib borishga, shu asosda bozorni turli mahsulotlar bilan to'ldirishga, narx-navoning arzonlashuviga, aholi turmush tarzining yaxshilanishiga olib keladi. Shu jumladan, davlatimiz tomonidan aynan voyaga yetmaganlarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishiga barcha shart-sharoitlar yaratilgan hamda ularning erkin holda tadbirkorlik faoliyatini yuritishlari huquqiy jihatdan kafolatlangan.

V bob. VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGI VA ULARNING MA'MURIY JAVOBGARLIGI

1. Voyaga yetmaganlarning huquqbazarligi mazmuni va yuridik tarkibi

Huquqbazarlik ijtimoiy ma'noda, fuqarolar, jamiyat huquqlari va qonuniy manfaatlariga xavfni vujudga keltiruvchi xulq-atvor bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va ularning buzilishiga olib keladi. Huquqbazarlik qasddan yoki ehtiotsizlik orqasidan sodir etiladigan xulq-atvor bo'lib, uning natijasida jamiyat, davlat va fuqarolar manfaatlariga moddiy yoki ma'naviy zarar etkaziladi. Huquqbazarlik — o'rnatilgan xulq-atvor qoidalarining buzilishida ifodalanadi.

Davlat boshqaruvi sohasida sodir etiladigan va ko'p uchraydigan huquqbazarlik ko'rinishlaridan biri — bu ma'muriy huquqbazarlikdir.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 10-moddasiga binoan ma'muriy huquqbazarlik deganda — qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

Ma'muriy huquqbazarlikning mazmuni — amaldagi qonunchiligidizda aniq ko'rsatib o'tilgan bo'lib, quyidagi umumiy xususiyatlarga egadir:

— birinchidan, ma'muriy huquqbazarlik — ijtimoiy zararli hisoblanadi, ya'ni uning sodir etilishi bilan jamiyat va fuqarolarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga ma'lum

bir moddiy va ma'naviy zarar etkaziladi;

– ikkinchidan, ma'muriy huquqbuzarlik – ma'muriy huquqqa xilof hisoblanadi, ya'ni bunday xatti-harakatlarni sodir etish qonun hujjatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri taqiqlangan;

– uchinchidan, ma'muriy huquqbuzarlik – bu qilmishdir. Ma'muriy huquqbuzarlik – bir yoki bir necha insonlarning ongli va irodali harakati yoki harakatsizligida ifodalananadi;

– to'rtinchidan, ma'muriy huquqbuzarlik jismoniy shaxs tomonidan sodir etiladigan qilmishdir. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga binoan ma'muriy huquqbuzarlikning subyekti faqat jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin;

– beshinchidan, ma'muriy huquqbuzarlikda aybning mavjudligi, ya'ni ma'muriy huquqbuzarlik – qasddan yoki ehtiyoitsizlik orqasidan sodir etiladigan ongli, irodali qilmish hisoblanadi;

– oltinchidan, ma'muriy huquqbuzarlik – jazoga sazovordir.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 10-moddasi 1-qismiga binoan ma'muriy huquqbuzarlik deganda – qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan qilmish tushuniladi.

Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, davlatning huquqiy tizimi, odatda, uch guruh: jinoiy, ma'muriy va intizomiy jazo sanksiyalari bilan muhofaza qilinadi. Jumladan, aniq holatlarga qarab saylov huquqini, mulkchilikni, mehnat, sanitariya, ekoliya qoidalarini buzish uchun jinoiy yoki ma'muriy yoxud intizomiy javobgarlik qo'llanilishi mumkin. Ushbu javobgarliklarning birinchi o'xhashlik tomoni shundan iboratki, ular huquqiy tartibotni muhofaza qiladi;

ikkinchidan, bu javobgarlik sanksiyalari qonunlar bilan o'rnatilgan;

uchinchidan, ular huquqqa xilof aybli qilmish (huquqbuzarliklar) uchun qo'llaniladi;

to'rtinchidan, qonun hujjatlarida javobgarliklarni qo'llash jarayoni va javobgarlikni qo'llovchi organlarning vakolatlari ko'rsatib o'tilgan;

beshinchidan, ularni qo'llash aybdor shaxsga nisbatan «noxush» oqibatlarni, shuningdek, ma'lum bir muddatda javobgarlikka tortilganlikni (masalan, jinoyatda sudlanganlik, ma'muriy va intizomiyda bir yillik muddat) olib keladi.

Demak, jinoiy, ma'muriy va intizomiy javobgarlik ko'pgina o'xshash tomonlarga egadir. Lekin qonuniylik tartibini ta'minlashda huquqbuzarlikni to'g'ri tasniflash, aybdor shaxsni qonuniy va asoslantirilgan jazoga tortish maqsadida, huquqbuzarlik ko'rinishlarini farqlash lozim bo'ladi.

Jinoyat nojo'ya xatti-harakatdan (ma'muriy, intizomiy) bir qator xususiyatlari bilan farqlanadi. Bu bиринчи navbatda, huquqqa xilof qilmishning ijtimoiy xavfi va turi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 14-moddasiga binoan ushbu kodeks bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan – jinoyat deb topiladi.

Ushbu kodeks bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar etkazadigan yoki shunday zarar etkazish real xavfni keltirib chiqaradigan qilmish – ijtimoiy xavfli qilmish deb topiladi.

To'g'ri, har qanday huquqqa xilof qilmishdan kelib chiqadigan moddiy, ya'ni jamiyatga keltiriladigan zarar darajasi bиринчи o'rinda turadi. Aynan unga qarab huquqqa xilof qilmishning turi: jinoiy, ma'muriy yoki intizomiy huquqbuzarlik ekanligi masalasi hal qilinadi. Ikkinchidan esa, mazkur javobgarliklarni farqlashda – turli protsessual normalar orqali – tartibga solinganligi, shuningdek, sudlanganlik va ma'muriy yoki intizomiy javobgarlikka tortilganlik masalasi e'tiborga olinadi.

Huquqbuzarlikning ijtimoiy xavfi mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risidagi masala tegishli davlat organlari vakolatiga kirib, huquqbuzarlik tarkibining xususiyatlarini aniqlash orqali hal qilinadi.

Nojo'ya xatti-harakatlar, odatda, ijtimoiy xavflilik xususiyatiga ega bo'lmasdan, ijtimoiy zararli qilmish hisoblanadi.

Demak, jinoyatning nojo'ya xatti-harakatdan asosiy farqi, unda qilmish ijtimoiy xavfli hisoblanadi.

Masalan, aynan bitta ko'inishga ega bo'lgan, lekin ikki xil javobgarlikni vujudga keltiradigan huquqbuzarlikni, ya'ni jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik o'rtasidagi farqni, ijtimoiy xavflilik darajasida ko'rish mumkin. Jumladan, O'zR MJtKning 41-moddasiga binoan haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish – ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanadi. O'zR JKning 140-moddasiga binoan esa, haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash, basharti, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilgan bo'lsa, jinoyat hisoblanadi. Bunda, haqorat qilish harakati ma'muriy jazo qo'llanilgandan so'ng, qayta sodir etilishi ijtimoiy xavfni (jinoiy qilmishni) vujudga keltiradi.

Qonun chiqaruvchi ma'muriy huquqbuzarliklarga tavsif berar ekan, jinoyatlardan farqli o'laroq, ularni ijtimoiy xavfli xatti-harakatlar deb atamagan.

Ma'muriy nojo'ya xatti-harakatlar bilan intizomiy nojo'ya xatti-harakatlarni taqqoslaganda, ularning ikkalasi ham ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanmasligini e'tiborga olish lozim. Lekin ularning formal xususiyati – huquqqa xilofliliqi nuqtai nazaridan kelib chiqqanda, ma'lum bir farqli tomonlar mayjud. Ma'muriy huquqbuzarlik bilan bog'liq bo'lgan barcha holatlar: uning tarkibi, sanksiyalar tizimi va boshqalar ma'muriy huquq bilan tartibga solinadi. Intizomiy nojo'ya xatti-harakatlarga qarshi kurashish – mehnat qonunchiligi bilan, harbiy xizmat-chilarning, yig'inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar hamda ichki ishlar organlarining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslarning intizomiy javobgarligi – ma'muriy qonunchilik (intizom ustavlari) bilan, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning esa – jinoyat ijroiya qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Bunda intizomiy nojo'ya xatti-harakatlarning tarkibi umumiyl holda ko'rsatib o'tilgan, ya'ni aniqlashtirilmagan.

Intizomiy javobgarlik odatda, xizmat vazifalarini bajarmaganlikdan yoki lozim darajada bajarmaganlikdan vujudga keladi. Ma'muriy javobgarlik esa, umumiyl qoidaga binoan, davlat boshqaruvi sohasidagi umummajburiy qoidalarning

bajarilmaganligidan yoki lozim darajada bajarilmaganligidan kelib chiqadi. Demak, ma'muriy javobgarlik tomonidan muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlar doirasi, intizomiy javobgarlikka qaraganda kengroqdir.

Intizomiy nojo'ya xatti-harakatlar uchun intizomiy javobgarlik vakolatli rahbar (yuqori turuvchi organ yoki mansabdor shaxs) tomonidan o'ziga bo'ysungan shaxsga nisbatan, ma'muriy javobgarlikda esa — vakolatli davlat organlari yoki mansabdor shaxslar tomonidan xizmat bo'yicha bo'ysunuv mavjud bo'lмаган holatlarda qo'llaniladi.

Demak, ma'muriy huquqbuzarlik (nojo'ya xatti-harakat) tushunchasi jinoyat va intizomiy nojo'ya xatti-harakat tushunchalariga yaqin turishi bilan bir vaqtda, turli asoslarga ko'ra farqlanuvchi va o'ziga xos bo'lган xususiyatlarga ham egadir.

Huquqbuzarlik tarkibini ifodalovchi xususiyatlar — bu qonun hujjatlarida mustahkamlangan va sodir etilgan qilmishni huquqbuzarlik sifatida ifodalash mumkin bo'lган xususiyatlardir.

Yuridik javobgarlikning asosi sifatida huquqbuzarlikning namoyon bo'lishi, uning subyektiv va obyektiv xususiyatlarga ega bo'lishiga bog'liqdir.

Bu ikkala tushunchani farqlash nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. Masalan, transportda 16 yoshga to'lмаган bolaning chiptasiz yurishi — huquqbuzarlikning yuridik xususiyatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Lekin huquqbuzarlik tarkibining asosiy xususiyatlaridan birining (masalan, huquqbuzarlik subyekti) bo'lмаганини javobgarlikni vujudga keltirmaydi.

Huquqbuzarlik tarkibini ifodalovchi o'zaro yaqin xususiyatlar birlashib, huquqbuzarlik tarkibi elementlarini tashkil etadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik tarkibi tushunchasini anglash va uni aniqlash — ma'muriy javobgarlikka tortishning qonuniyigini ta'minlaydi, ma'muriy huquqbuzarlikning boshqa huquqbuzarliklardan farqini belgilab beradi.

Ma'muriy huquqbazarlik tarkibi – bu ma'muriy huquq normalari bilan o'rnatilgan xususiyatlarning yig'indisi bo'lib, ularning mavjud bo'lishi bilan aniq bir qilmishlar – ma'muriy huquqbazarlik sifatida tan olinadi.

Har qanday huquqbazarlik tarkibi singari, ma'muriy huquqbazarlik ham: huquqbazarlikning obyekti va obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv tomoni kabi xususiyatlar yig'indisidan iborat bo'ladi.

Ma'muriy huquqbazarlikning obyekti – bu ma'muriy huquq normalari bilan o'rnatilgan va muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda, davlat boshqaruvi sohasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlardir. Davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida nafaqat ma'muriy huquq normalari bilan, balki ma'muriy-huquqiy vositalar bilan muhofaza etiladigan boshqa huquq tarmoqlari (konstitutsiyaviy, moliya, yer, mehnat va h.k.lar) normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar ham vujudga keladi. Shu sababli, ma'muriy huquqbazarlik obyektiiga ma'muriy javobgarlik normalari bilan himoya qilinadigan har qanday munosabatlarni kiritish mumkin.

Ma'muriy huquqbazarlikning obyektiv tomoni – bu huquqqa xilof qilmishdir, ya'ni ma'muriy huquqbazarlik obyektiiga qaratilgan harakat yoki harakatsizlik, uning xususiyatlari, shuningdek, uni sodir etish (yoki sodir etmaganlik) sharoitlari hisoblanadi.

Ma'muriy huquqbazarlik obyektiv tomondan ikki ko'rinishga ega:

- birinchidan, ma'muriy huquqbazarlikni harakat natijasida sodir etish. Harakat – insонning faol xulq-atvori hisoblanadi. Aksariyat ma'muriy huquqbazarliklar, obyektiv tomonidan shaxslarning harakati orqali sodir etiladi. Masalan, tuhmat, haqorat qilish, yengil tan jarohati yetkazish, o'rnatilgan turli umummajburiy qoidalarni ouzishda ifodalangan huquqbazarliklar – harakatlar natijasida sodir etiladi;

- ikkinchidan, ma'muriy huquqbazarlikning harakatsizlik natijasida kelib chiqishi. Harakatsizlik – insонning passiv xulq-atvori bo'lib, odatda, belgilangan vazifani, majburiyatni

bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlikda ifodalananadi. Masalan, mansabdar shaxslar tomonidan fuqarolarning murojaatlarini o‘z vaqtida ko‘rib chiqmaganlik, ota-onalarining bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganlik, hokimiyat vakilining qonuniy talablarini bajarmaganlikda ifodalangan huquqbuzarliklar – harakatsizlik natijasida kelib chiqadi.

Umumiy qoidagi ko‘ra, ma’muriy huquqbuzarlikning subyekti – bu 16 yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxsdir.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida ma’muriy javobgarlik subyektlari uch guruhga bo‘lingan:

1) umumiy subyekt – har qanday 16 yoshga to‘lgan jismoniy shaxs. Jumladan, O‘zR MJtKning 13-moddasida ma’muriy javobgarlik subyekti umumiy holda ko‘rsatib o‘tilgan;

2) maxsus subyekt – umumiy subyektlarga qaraganda o‘ziga xos xususiyatlarga (qo‘srimcha belgilarga) ega bo‘lgan subyektlardir. Ma’muriy huquqbuzarlikning maxsus subyektiga – mansabdar shaxslarni, haydovchilarni, voyaga yetmaganlarni va boshqalarni kiritish mumkin. Mazkur shaxslar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar va ularga nisbatan qo‘llaniladigan javobgarlik o‘ziga xos xususiyatlarga egadir;

3) alohida subyekt – intizom ustavlari yoki xizmat to‘g‘risidagi nizomlar tatbiq qilinadigan shaxslar, masalan, harbiy xizmatchilar va yig‘inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslar. Ma’muriy huquqbuzarlikning alohida subyektlari – maxsus subyektlarning alohida guruhini tashkil etadi. Alohida subyektlar ham, maxsus subyektlar singari o‘ziga xos xususiyatlarga egadir.

Har qanday huquqbuzarlik singari, ma’muriy huquqbuzarlik ham – huquqqa xi洛 aybli sodir etilgan qilmish hisoblanadi. Huquqbuzarning huquqqa xi洛 qilmishni sodir etishda aybi mavjud bo‘lganida, uni javobgarlikka tortish mumkin bo‘ladi. Ayb – bu sodir etilgan qilmishga nisbatan shaxsning ruhiy munosabatidir. Ayb ikki shaklda: qasd va ehtiyojsizlikda ifodalangan bo‘lishi mumkin. Ayb – ma’muriy huquqbuzarlik subyektiv tomonining majburiy xususiyati hisoblanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlikning subyektiv tomoni – bu huquqbuzarlik subyekti (jismoniy shaxs)ning huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik hamda uning oqibatlariga nisbatan ruhiy munosabati hisoblanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik aybning ikki shaklida ham, ya'ni qasddan va ehtiyyotsizlikdan sodir etilishi mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 11-moddasiga binoan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi g'ayrihuquqiy ekanligini bilgan bo'lsa, uning zararli oqibatlariga ko'zi etgan, yuz berishini istagan bo'lsa yoki bu oqibatlarning kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbuzarlik qasddan sodir etilgan deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 12-moddasiga binoan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko'ra bilgan bo'lsa ham, lekin kaltabinlik bilan ularning oldini olish mumkin deb o'ylagan bo'lsa, yoxud bunday oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'rishi lozim va mumkin bo'lgani holda, oldindan ko'ra bilmagan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbuzarlik ehtiyyotsizlik orqasida sodir etilgan deb hisoblanadi.

Demak, shaxsning sodir etgan qilmishini ma'muriy huquqbuzarlik sifatida tasniflash uchun birinchidan, ma'muriy huquqbuzarlikning yuridik xususiyatlari – huquqqa xilofilik, aybning mavjudligi, jazoga sazovorligi va ikkinchidan, yuridik tarkibi – ma'muriy huquqbuzarlikning obyekti va obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv tomoni mayjud bo'lishi kerak.

2. Ma'muriy javobgarlik mazmuni va xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan va 1995 yil 1 apreldan amalga kiritilgan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 1-moddasiga binoan ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujatlari: ushbu Kodeks; O'zbekiston Respublikasi Qonunlari; O'zbekiston Res-

publikasi Oliy Majlisining Qarorlari; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari; Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunlari; Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining va Vazirlar Kengesining Qarorlari; xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlaridan iborat.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifasi — inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiyadolat va qonuniylikni ta'minlashni, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarning o'z vaqtida va obyektiv ko'rib chiqilishini, shuningdek, bunday huquqbuzarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga riosa etish ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun, qonun hujjatlari, qanday harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanishini, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan qaysi organ (mansabdar shaxs) tomonidan qay tartibda, qanaqa ma'muriy jazo qo'llanilishi va ijro etilishini belgilaydi.

Ma'muriy huquqbuzarlik uchun hech kim qonun hujjatlarida belgilangan assoslар va tartibdan boshqacha tarzda ta'sir ko'rsatish chorasiga tortilishi mumkin emas.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish qonuniylikka riosa qilingan holda olib boriladi.

Tegishli vakolat berilgan organlar va mansabdar shaxslar ma'muriy ta'sir ko'rsatish choralarini o'z vakolatlari doirasida qo'llaydilar.

Ma'muriy huquqbuzarlik uchun ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash chog'ida qonun hujjatlari talablariga riosa etilishi vakolatli yuqori turuvchi organlar va mansabdar shaxslar tomonidan muntazam ravishda nazorat qilib turilishi bilan, prokuror nazorati bilan, shikoyat berish huquqi bilan ta'minlanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs bu huquqbuzarlik sodir etilgan vaqt va joyda amal qilib turuvchi qonun hujjatlari asosida javobgarlikka tortiladi. Ma'muriy

huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki bekor qiluvchi hujjatlar orqaga qaytish kuchiga egadir, ya'ni ushbu hujjatlar chiqqunga qadar sodir etilgan huquqbuzarlik hollariga ham taalluqlidir. Ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlikni belgilovchi yoki javobgarlikni kuchaytiruvchi hujjatlar esa orqaga qaytish kuchiga ega bo'lmaydi. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar huquqbuzarlik to'g'risidagi ish ko'rيلayotgan vaqt va joyda amal qilib turgan qonun hujjatlari asosida yuritiladi.

Demak, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari, boshqa ma'muriy-huquqiy normalar singari, birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini, shuningdek, turli huquq sohalari (konstitutsiyaviy, ma'muriy, mehnat, moliyaviy, fuqarolik va h.k.lar) normalarini amalga oshirilishini va himoya qilinishini ta'minlashni nazarda tutadi. Ma'muriy javobgarlikni tartibga soluvchi asosiy qonun hujjati – O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi bo'lib, respublika miqyosidagi ma'muriy javobgarlik normalarini tartibga soladi, ya'ni: birinchidan, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining umumiy holatlari va prinsiplarini mustaqkamlaydi; ikkinchidan, respublika miqyosida umummajburiylik xususiyatiga ega bo'lgan qoidalarning buzilishi uchun ma'muriy javobgarlikni o'rnatadi; uchinchidan, ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiqish va ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorlarni ijro etish jarayonini tartibga soladi; to'rtinchidan, ma'muriy jazo turlarini va ma'muriy protsessual majburlov choralarini o'rnatadi.

Ma'muriy javobgarlik yuridik javobgarlikning alohida turi hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida, ma'muriy javobgarlik ma'muriy-huquqiy majburloving ko'rinishi bo'lib, uning barcha xususiyatlari egadir.

Ma'muriy javobgarlikka yuridik javobgarlikning barcha xususiyatlari ham xosdir. U huquqiy normalar asosida o'rnatiladi, shaxs tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik uchun qo'llaniladi va vakolatli davlat organlari (mansabdar shaxslar) tomonidan o'rnatilgan protsessual tartibda huquqiy normalarda nazarda tutilgan sanksiyalarni qo'llashda ifodalanadi.

Ma'muriy javobgarlik masalasi ko'pgina huquqshunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, ularning aksariyati bu masalaga deyarli bir xilda yondashgan: ma'muriy javobgarlik – bu ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solingan, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan ma'muriy protsessual tartibda ma'muriy jazoni qo'llashdir.

Ma'muriy javobgarlikni yuridik javobgarlikning barcha xususiyatlariiga ega ekanligi bilan bir qatorda, quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ham ko'rsatib o'tadi:

birinchidan, ma'muriy javobgarlik qonunlar bilan ham, qonunosti hujjatlari bilan ham o'matiladi, ya'ni u o'zining normativ-huquqiy asosiga egadir. Jinoiy javobgarlik – faqat qonunlar bilan, intizomiy javobgarlik – qonun va qonunosti hujjatlari bilan, moddiy javobgarlik – mehnat va fuqarolik qonunchiligi bilan belgilanadi;

ikkinchidan, ma'muriy javobgarlikning asosi bo'lib – ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanadi (qonun buzilishi va nojo'ya xatti-harakat ko'rinishida). Jinoiy javobgarlikda – jinoyat, intizomiy javobgarlikda – intizomiy nojo'ya xatti-harakat, moddiy javobgarlikda – moddiy zarar yetkazish hisoblanadi;

uchinchidan, ma'muriy javobgarlik subyekti sifatida fuqarolar, mansabdor shaxslar namoyon bo'ladi. Jinoiy javobgarlikda – fuqarolar va mansabdor shaxslar, intizomiy javobgarlikda – xodim (jamoa subyektlarining intizomiy javobgarligi yuridik adabiyotlarda munozarali bo'lib kelmoqda), moddiy javobgarlikda – xodim (mehnat qonunchiligi bo'yicha), yuridik va jismoniy shaxslar (fuqarolik qonunchiligi bo'yicha) subyekt bo'lishi mumkin;

to'rtinchidan, ma'muriy huquqbuzarliklar uchun – ma'muriy jazo choralar qo'llaniladi. Jinoyat uchun – jinoiy jazo, intizomiy nojo'ya xatti-harakat uchun – intizomiy jazo, moddiy zarar yetkazish uchun – mulkiy jazo qo'llaniladi;

beshinchidan, ma'muriy javobgarlik qonun hujjatlariiga binoan keng doiradagi davlat organlari (mansabdor shaxslar) tomonidan qo'llaniladi. Jinoiy javobgarlik – sud organlari

tomonidan, intizomiy javobgarlik — yuqori turuvchi davlat organi (mansabdar shaxs) tomonidan, moddiy javobgarlik — sud organlari tomonidan qo'llaniladi;

oltinchidan, ma'muriy javobgarlik sudlanganlik holatini yoki ishdan bo'shatishni vujudga keltirmaydi, jinoiy javobgarlikda — sudlanganlik vujudga keladi, intizomiyda — ishdan bo'shatish mumkin;

ettinchidan, ma'muriy javobgarlikni qo'llash uchun, bo'ysinuvning bo'lishi shart emas, intizomiy javobgarlikni qo'llashda esa bo'ysinuv mavjud bo'ladi.

Ma'muriy javobgarlik barcha fuqarolar uchun tatbiq qilinadigan umummajburiy qoidalarni buzganlik yoki rioya etmaganlik uchun qo'llaniladi. Ular turli-tuman ko'rinishlarga ega bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, davlat va jamoat tartibi va xavfsizligi; tabiatni muhofaza qilish; mulkchilik; standartlashtirish; statistika va hisob-kitob; harakatlanish xavfsizligi va transport vositalaridan foydalanish; harbiy ro'yxat; chegara tartibi; kontrabandaga qarshi kurash; valyuta muomalasi va boshqa qoidalalar. Umummajburiy qoidalalar turli vakolatli ijro hokimiyati organlari tomonidan o'matiladi.

3. Voyaga yetmaganlar ma'muriy javobgarligining o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 14-moddasiga binoan ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyalar to'g'risidagi nizomda nazarda tutilgan choralar qo'llaniladi.

Voyaga etmaganlarning ma'muriy javogarligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21 sentyabrdagi «Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida»gi 360-sonli Qarorida voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqiy-tarbiyaviy ishlari susaytirib yuborilganligi, ular ustidan bo'lgan nazoratning bo'shligi, ish bilan ta'minlash va boshqa muammolar qoniqarli darajada hal

etilmayotganligi, oqibatida, ko'plab yoshlardan tomonidan huquqbazarlik va jinoyatlar sodir etish, giyohvandlik va ichkilikbozlikka berilish, diniy aqidaparastlik yoki turli zararli oqimlar, guruhlar ta'siriga tushib qolish kabi salbiy holatlar uchrab turganligi haqida to'xtalib o'tilgan.

Yoshlarni ijtimoiy mehnatga jalb etish, tarbiyalash, ular o'rtaida huquqbazarlik va jinoyatchilikning oldini olishga mutasaddi bo'lgan o'zini-o'zi boshqarish organlari, o'quv muassasalarini va boshqa idoralarning faoliyatini muvofiq-lashtiruvchi mahalliy hokimliklar huzuridagi mavjud komissiyalar o'z faoliyatini deyarli to'xtatib qo'yganligi ta'kidlangan.

Voyaga yetmaganlar o'rtaida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, ular tomonidan huquqbazarliklar sodir etilishining oldini olish, bu yo'nalishda mas'ul bo'lgan davlat idoralari, jamoat tashkilotlari hamda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish va yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi «Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar haqida»gi nizom hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya tarkibini tasdiqladi.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiruvchi, voyaga yetmaganlar o'rtaida nazoratsiz qolish va huquqbazarliklarning oldini olish organlari hisoblanadilar.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar – voyaga yetmaganlarning nazoratsiz, qarovsiz qolishlari, huquqbazarliklari va jamiyat uchun zararli xatti-harakat qilishlarining oldini olish, bularga imkon tug'diruvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish; voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash; ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-pedagogika jihatdan reabilitatsiya qilish maqsadida tuziladi.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar tumanlar, shaharlar, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tuziladi.

Komissiyalar rais (tuman, shahar, viloyat hokimi o'rribbosari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining o'rribbosari), rais o'rribbosari, mas'ul kotib va komissiyaning 6–12 a'zosi tarkibida tuziladi. Komissiya a'zolari soni komissiyaning ish hajmiga qarab belgilanadi.

Komissiyaning mas'ul kotibi kundalik ishlarni va komissiya qarorlarining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Tumanlar, shaharlar va viloyatlar hokimliklari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi komissiyalarda boshqa ishlardan ozod mas'ul kotib lavozimi, zaruriyat bo'yganda esa voyaga yetmaganlar bilan ishslash bo'yicha inspektor lavozimi joriy etiladi.

Komissiyaga tarkibiga oliv va o'rtasida maxsus, kasb-hunar ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, ichki ishlar, mehnat organlari, xotin-qizlar qo'mitasi, kasaba uyushmalari, nodavlat, notijorat tashkilotlari, mudosaaga ko'maklashish jamiyati, mehnat jamoalari, madaniy-ma'rifiy va boshqa muassasalarining vakillari kiramolar.

Komissiyalar tarkibida: voyaga yetmaganlar o'rtasida madaniy-tarbiyaviy ishlar bo'yicha, umumita'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari va boshqa o'quv muassasalarining o'quvchilari bilan ishslash bo'yicha, bolalar va o'smirlarni ishga joylashtirish va maishiy turmushini yaxshilash masalalari bo'yicha, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan chiqarilgan va tarbiyalash koloniyalardan ozod qilingan o'smirlar ustidan nazorat o'matish bo'yicha seksiyalar tashkil etilishi mumkin.

Komissiyalar o'z vakolatlariga kiritilgan masalalar bo'yicha davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladilar.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

1) voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning nazoratsiz, qarovsiz qolishi hamda ular o'rtasida sodir etilayotgan huquqbazarlik va jinoyatlarning kelib

chiqishi sabablari, shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish choralarini amalga oshirish;

2) davlat idoralari, o'zini-o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlarining voyaga yetmaganlarning nazoratsiz qolishi va huquqbuzarliklarning oldini olish masalalari yuzasidan faoliyatini muvofiqlashtirish;

3) Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Xalq ta'lifi vazirligining ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari va Ichki ishlar vazirligining muassasalarida voyaga yetmaganlarning saqlanishi, ularni o'qitish, tarbiyalash shart-sharoitlari ustidan nazoratni tashkil etish;

4) voyaga yetmagan yoshlarning ongini, tafakkurini shakllantirish, yuksaltirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida ma'naviyat va ma'rifat ishlarini jonlantirish;

5) jazoni ijro etish joylaridan ozod bo'lib kelgan yoki maxsus o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytgan voyaga yetmaganlarni turar joy va ish bilan ta'minlashda yordam berish, shuningdek, voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha qonunda ko'zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

Tuman (shahar) komissiyalari zimmasiga:

a) 14 yoshga to'limasdan turib jamiyat uchun xavfli xatti-harakatlar sodir etgan, 13 yoshga to'lgandan keyin og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirgan voyaga yetmaganlar bundan mustasno;

b) 14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan davrda ular uchun jismoniy javobgarlik nazarda tutilmagan, jamiyat uchun xavfli xatti-harakatlar sodir etgan;

v) 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan davrda jinoyat alomatlari bo'lgan xatti-harakatlar sodir etib, ularga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atish rad qilingan yoki jinoiy ish to'xtatilgan;

g) 16 yoshgacha bo'lgan davrda yo'l harakati qoidalarini buzgan;

d) jamiyatga qarshi boshqa xatti-harakatlar sodir etgan;

e) umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi ta'lif muassasalarida (umumiy ta'lim maktablari, akademik litseylar

va kasb-hunar kollejlarida) o'qishdan bosh tortgan;

j) jamiyat uchun katta xavf bo'lмаган jinoyat sodir etganida tergovchi yoki prokuorning qarori yoxud sud ajrimi asosida javobgarlikdan ozod qilingan;

z) O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida nazarda tutilgan tartibda ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan voyaga yetmagan shaxslar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vazifasi yuklanadi.

Tuman (shahar) komissiyalari qonun hujjalardan nazarda tutilgan hollarda voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan quyidagi ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llashlari, ya'ni:

1) voyaga yetmaganga jabrlanuvchidan uzr so'rash majburiyatini yuklash to'g'risida tuman (shahar) sudiga taqdim-noma kiritishi;

2) ogohlantirib qo'yishi;

3) 15 yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs zimmasiga, agar u mustaqil ish haqiga ega bo'lsa va zarar miqdori belgilangan eng kam oylik ish haqidan ortiq bo'lmasa moddiy zararning o'rnini qoplash yoki uni bartaraf etish majburiyatini yuklashi yoki belgilangan eng kam oylik ish haqidan ortiq bo'lмаган moddiy zararni o'z mehnati bilan qoplash majburiyatini yuklashi;

4) 16 yoshga to'lgan va mustaqil ish haqiga ega bo'lgan voyaga yetmagan shaxsga O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javogarlik to'g'risidagi kodeksida, Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat hokimiyati va boshqaruving oliv organlari chiqargan hujjalarda, viloyatlar va Toshkent shahar davlat boshqaruvi organlari qarorlarida ko'zda tutilgan hollarda va miqdorlarda jarima solishi;

5) voyaga yetmagan shaxsni o'z ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar yoxud jamoat tarbiyachilari nazaratiga, shuningdek, ularning roziliqi bilan mehnat jamoasi yoki jamoat tashkiloti kuzatuviga topshirishi;

6) voyaga yetmagan shaxs jamiyat uchun xavfli xattiharakatlar qilgan yoki ijtimoiy axloq qoidalarini qasddan va muntazam ravishda buzib kelgan taqdirda komissiya ichki ishlarni bilan birgalikda voyaga yetmaganni maxsus o'quv-

tarbiya muassasasiga yuborish masalasini ko'rib chiqish to'g'risida sudga iltimos qiladi. 11 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxs maxsus mакtab-internatga yuborilishi, 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxs esa maxsus kasb-hunar kollejiga yuborilishi mumkin.

Har bir aniq holat bo'yicha qabul qilingan ta'sir choralar to'g'risida komissiyalar voyaga yetmaganning yashash, o'qish yoki ish joyi bo'yicha huquqni buzishlarning oldini olish bo'linmalarini tomonidan voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olish ishlarini ta'minlash uchun ichki ishlar organlarining tegishli hududiy organlarini xabardor qilishga majburdir.

Tuman (shahar) komissiyalari voyaga yetmaganlarning ottonalari yoki ular o'mini bosuvchi shaxslarga nisbatan, voyaga yetmagan shaxsni mast bo'lishga olib kelganligi, voyaga yetmaganlar katta yoshdagilar tomonidan tilanchilikka, fohishabozlikka, qimor o'yinlariga, spirtli ichimliklar ichishga, giyohvand yoki psixotrop moddalar bo'lмаган, biroq intellektual iroda faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi moddalar yoki vositalarni iste'mol qilishga jalb qilinganligi, shuningdek, 16 yoshga to'lмаган о'smirlar yo'l harakati qoidalarini buzganligi, tilanchilik, fohishabozlik, qimor o'yinlari bilan shug'ulanganligi, jamoat joylarida mast holda paydo bo'lganligi, teng ravishda ular spirtli ichimliklar, giyohvand yoki psixotrop moddalar bo'lмаган, biroq intellektual iroda faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi vositalar va moddalar iste'mol qilganliklari yoxud boshqa xil huquqbazarlik hollarini sodir etganliklari uchun quyidagi ta'sir choralarini qo'llashlari, ya'ni:

- jamoat izzasi berishi;
- ogohlantirib qo'yishi;
- O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida belgilangan miqdorlarda jarima solishi;
- favqulodda hollarda bolaning hayotiga yoki sog'lig'iga bevosita xavf solinganda ish sud tomonidan hal etilgungacha bolani vaqtincha ota-onasidan yoki ular vasiyligida bo'lgan boshqa shaxslardan olib qo'yish to'g'risida vasiylik va homiylik organlariga taqdimnoma kiritishi mumkin.

Komissiya ota-onalarning muomala layoqatini cheklangan deb topish, ota-onalarni ota-onalik huquqidan mahrum etish, bolalarni o‘z ota-onalaridan ularni ota-onalik huquqidan mahrum etmasdan olib qo‘yish, shuningdek, bolalarning ota-onalari ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo‘lib, shu bolalari bilan birgalikda yashashlari mumkin emas deb topilgan taqdirda, ularni boshqa turar joy bermasdan ko‘chirib yuborish to‘g‘risida tuman (shahar) sudiga da’vo bilan murojaat qilish huquqiga egadir.

Voyaga yetmagan shaxslarni maxsus o‘quv-tarbiya muassasalariga yuborish komissiyaning bolalarning ota-onalari yoki ota-onasi o‘rnini bosuvchi shaxslarning roziligidini olmay turib chiqargan qarori asosida sudning ajrimi bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin. Maxsus o‘quv-tarbiya muassasalariga yuborish to‘g‘risidagi ishlar albatta, prokuror ishtirok etgan holda ko‘rib chiqiladi.

Voyaga yetmagan shaxslarni o‘z ota-onalari yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslar bo‘la turib «Mehrbonlik» uyiga yoki maxsus maktab-internatga yuborish ularning ota-onalari yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslar rozilisiz favqulodda hollardagina (ular uzoq vaqt bo‘lmaganlari, kasal bo‘lganlari, jinoyat sodir qilib, hukm etilganliklari taqdirda va hokazo hollarda) amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, komissiya ota-onalardan yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslardan o‘z bolalarini boqish uchun qilingan xarajatlarni undirib olish uchun qonunda belgilangan tartibda tegishli mablag‘lar undirib olish haqida ham qaror qabul qiladi. Favqulodda hollarda komissiyaning iltimosiga ko‘ra undirib olinadigan bu haqning miqdori qonunda belgilangan tartibda kamaytirilishi mumkin.

Tuman (shahar) komissiyalari o‘z bolalarini tarbiyalashga noto‘g‘ri munosabatda bo‘layotgan yoki komissiya chiqargan qarorning bajarilishiga to‘sinqinlik qilayotgan ota-onalarga yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslarga ta’sir ko‘rsatish choralarini qo‘llash haqida, shuningdek, bolalar va o‘smirlar huquqbuzarlik qilishlari uchun sharoit yaratib berayotgan yoxud voyaga yetmagan shaxslarni jinoyat va jamiyatga qarshi boshqa nojo‘ya harakatlar qilishga undayotgan yoki jalb etayotgan shaxslarni

javobgarlikka tortish to‘g‘risida tegishli davlat organlariga taqdimnomalar bilan kira dilar.

Ta’sir ko‘rsatish choralari qo‘llanilayotganida tuman (shahar) komissiyasi huquqbuzarlik holatining xususiyatini va sabablarini, voyaga yetmagan shaxsning yoshini va uning hayot sharoitlarini, uning huquqbuzarlik qilishda qay darajada ishtirok etganligini, shuningdek, uning turmushidagi, maktabdagisi va ishdagi xulq-atvorini albatta, hisobga olishi lozim.

Komissiyaning voyaga yetmaganlar ishi bo‘yicha ogohlantirish berish to‘g‘risidagi qarori bir yil mobaynida amal qiladi. Basharti ta’sir ko‘rsatish chorasi qo‘llanilgan voyaga etmagan shaxs ana shu muddat ichida yangi huquqbuzarlik sodir etmasa, ta’sir ko‘rsatish chorasi tugallangan deb hisoblanadi. Ta’sir ko‘rsatish chorasini qo‘llagan komissiya o‘z qaroriga binoan, basharti ana shunday ta’sir ko‘rsatish chorasi qo‘llanilgan voyaga yetmagan shaxs namunali axloqi bilan o‘zining tuzalganligini ko‘rsatgan taqdirda, jazoni bir yil o‘tmasdan ham olib tashlashi mumkin.

Komissiyaning voyaga yetmagan shaxsni o‘z ota-onasi, ular o‘rnini bosuvchi shaxslar yoki jamoat tarbiyachilari nazoratiga yoxud mehnat jamoasi, jamoat tashkiloti kuzatuviga topshirish to‘g‘risidagi qarorining amal qilish muddati, basharti voyaga yetmagan shaxs o‘zining namunali axloqi va ishga hamda o‘qishga bo‘lgan halol munosabati bilan o‘zining tuzalganligini isbot etsa, mazkur shaxslar yoki tashkilotlar iltimosiga binoan istagan vaqtda bekor etilishi mumkin.

Tuman (shahar) komissiyasining jarima solish to‘g‘risidagi qarori shu qaror topshirilgan kundan boshlab 15 kun mobaynida ana shunday jarima solingen shaxs tomonidan to‘lanishi lozim, bunday qaror ustidan shikoyat yoki protest berilgan taqdirda esa, mazkur shikoyat yoki protest qondirilmaganligi haqida ma‘lumot nomalar olingan kundan boshlab 15 kundan kechiktirmay to‘lanadi.

16 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan shaxslar mustaqil ish haqiga ega bo‘lmasa, jarima ularning ota-onalaridan yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslardan undirib olinadi.

Jarima muddatida to'lanmagan taqdirda, komissiyaning jarima solish to'g'risidagi qarori jarima summasini fuqarolik-protsessual qonunchilik bilan belgilangan qoidalarga muvosiq shunday jarima solingen shaxsning ish haqidan yoki boshqa maoshidan, pensiyasi yoki stipendiyasidan majburiy tartibda ushlab qolish uchun yuboriladi.

Basharti jarima solingen shaxs ishlamayotgan bo'lsa yoki solingen jarimani boshqa sabablarga ko'ra uning ish haqidan yoki boshqa maoshidan, pensiyasi yoki stipendiyasidan undirib olishning iloji bo'lmasa, jarima komissiyaning jarima solish to'g'risidagi qarori asosida undiruvni huquqbuzarning shaxsiy mol-mulkiga, shuningdek, umumiy mulkdagi uning ulushiga qaratish yo'li bilan tuman (shahar) sudi sud ijrochisi tomonidan undirib olinadi.

Voyaga yetmagan shaxslar maxsus maktab-internatlarda 15 yoshga yetguncha saqlanadilar, maxsus kasb-hunar kollejlarida esa, 18 yoshga yetgunga qadar saqlanadilar.

Voyaga yetmagan shaxslar maxsus o'quv-tarbiya muassasalarida to axloqan tuzalganlariga qadar saqlanadilar, lekin bu muddat uch yildan ortib ketmasligi kerak.

Maxsus maktablarning 15 yoshga to'lgan, ammo axloqan tuzalmagan o'quvchilari shu maktablar joylashgan yerdagi tuman (shahar) komissiyasi tomonidan maxsus kasb-hunar kollejlariga yuborilishi mumkin.

Voyaga yetmagan shaxslarning maxsus o'quv-tarbiya muassasalarida bundan keyin bo'lishlarining maqsadga muvosiq-nomuvofiqligi masalasi vaqt-vaqt bilan, lekin yiliga kamida bir marta shu muassasalar joylashgan yerdagi tuman (shahar) komissiyalari tomonidan mazkur komissiyalarning o'z tashabbusi bilan, ana shu muassasalar ma'muriyatining taqdimnomasi yoki voyaga yetmaganlarning ota-onalari yoki ular o'rmini bosuvchi shaxslar iltimosiga binoan ko'rib chiqiladi.

Tarbiya koloniyasidan ozod bo'lib qaytgan voyaga yetmagan shaxs istiqomat qilayotgan joydagi komissiya mazkur shaxs 18 yoshga yetgunga qadar uni ishga yoki o'qishga joylashtirish choralarini ko'radi va uning axloqini nazorat qilib boradi.

Tarbiya koloniyasidan ozod bo'lgan voyaga yetmagan shaxsni tarbiyaviy mulohazalar sababli ilgarigi istiqomat joyiga yuborish maqsadga muvofiq emas, deb topilgan favqulodda hollarda uni ishga joylashtirish koloniya ma'muriyatining taqdimi bilan shu tarbiya koloniyasi joylashgan komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Komissiya koloniyadan ozod bo'lgan voyaga yetmagan shaxsni u yordam so'rab murojaat qilgan kundan boshlab 10 kun muddatdan kechiktirmay ishga yoki o'qishga joylashtirish masalasini hal qilishi shart.

Komissiyalar – O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan tartibda topshirilgan ishlarni; O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga muvofiq ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni; ichki ishlar organlari va xalq ta'lim organlari taqdimi bo'yicha berilgan ishlarni; kasaba uyushmasi, umumta'lim maktablari huzuridagi ota-onalar qo'mitalari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va boshqa jamoat birlashmaisi taqdimnomasi bo'yicha topshirilgan ishlarni; fuqarolarning arizalari bo'yicha ko'rildigan ishlarni; o'z tashabbusi bilan ko'rildigan ishlarni qarab chiqadilar.

Komissiyalar ishlarni ular komissiyaga tushgan paytdan boshlab ko'pi bilan 15 kun ichida ko'rib chiqadilar.

Voyaga yetmagan shaxslarning huquqbuzarlik qilganligi to'g'risida tuman (shahar) komissiyasi ko'rib chiqishi lozim bo'lgan materiallar komissiyaning raisi yoki uning o'rinnbosari tomonidan oldindan o'rganib chiqiladi va ular: ishni komissiya majlisida qarab chiqish; ishga oid materiallarni qo'shimcha suratda tekshirish yoki tushgan arizalar, taqdimnomalar bo'yicha tekshirib chiqish; ish komissiya majlisida ko'rulgunga qadar voyaga yetmagan shaxsga ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash; unchalik zararli bo'limgan huquqbuzarlik to'g'risidagi materiallarni, basharti huquqbuzarga nisbatan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga muvaffaq bo'linsa, voyaga yetmagan ana shu shaxs yashab yoki o'qib turgan joy bo'yicha fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga yoki jamoat birlashmalariga topshirish xususida qaror qabul qiladilar.

Huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish komissiyada qarab chiqilgunga qadar voyaga yetmagan shaxs o‘z ota-onasi yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslar kuzatuviga topshirilishi mumkin, «Mehribonlik» uyida, maxsus o‘quv-tarbiya muassasalarida tarbiyalanuvchi voyaga yetmagan shaxs esa, shu muassasalar ma‘muriyatining nazoratiga berilishi mumkin. 11 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlar jamoat uchun xavfli bo‘lgan og‘ir nojo‘ya harakat sodir etgan taqdirda va shu munosabat bilan uni darhol yakkalab qo‘yish zarurati tug‘ilganda, bu shaxs komissiya raisi yoki uning o‘rinbosari bergan yozma ko‘rsatmaga asosan ko‘pi bilan o‘ttiz kunlik muddatga voyaga yetmaganlar uchun mo‘ljallangan qabul-taqsimotxonaga joylashtirilishi mumkin.

Ishini komissiya ko‘rishi kerak bo‘lgan voyaga yetmagan shaxs ruhiy jihatdan sog‘lom ekanligiga shubha tug‘ilgan taqdirda, mazkur shaxs tibbiyot kuzatuvidan o‘tish uchun yuboriladi.

Komissiya ishlarni tayyorlash va qarab chiqish paytida voyaga yetmagan shaxsning yoshini, mashg‘ulotini, yashab turgan va tarbiyalanayotgan sharoitini, huquqbuzarlik qilganligi faktini va uning sodir etilganini tasdiqlovchi dalillarni, shuningdek, huquqbuzarlik qilishga da‘vat etuvchi katta yoshdagi kishilar va boshqa qatnashchilar bo‘lgan-bo‘lma-ganligini, voyaga yetmagan shaxslarga ilgari ta‘sir ko‘rsatish chorasi qo‘llanilgan-qo‘llanilmaganligini aniqlashi zarur.

Komissiya voyaga yetmagan shaxsning huquqbuzarlik sodir qilishiga olib kelgan sabab va shart-sharoitlarni batafsil tekshirib, ularni bartaraf etish choralarini ko‘rishi shart.

Komissiya ishni qarab chiqish uchun zarur ma‘lumot va hujjatlarni talab qilib olishi, shuningdek, komissiyada ko‘riladigan masalalar yuzasidan izohlar olish uchun mansabdar shaxslar va fuqarolarni chaqirishi mumkin.

Mansabdar shaxslar va fuqarolar komissiya chaqirig‘i bo‘yicha uzsiz sabablar bilan kelmagan taqdirlarida komissiya ishni ko‘rishni qoldirib, ularni o‘zlarini ishlab yoki o‘qib turgan joydagi ma‘muriyat, jamoat tashkilotlari orqali keltirish choralarini ko‘rishi mumkin.

Ishi ko'rيلayotgan voyaga yetmagan shaxs, shuningdek, uning ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar komissiyaga uzsiz sabablar bilan kelishdan bosh tortgan taqdirda, ular ichki ishlar organlari orqali olib kelinishi mumkin.

Ish ko'rishga tayyor deb topilgach, shu ishni tayyorlash vazifasi topshirilgan komissiyaning raisi, rais o'rinbosari yoki a'zosi ish qarab chiqilishidan oldin voyaga yetmagan shaxsni, uning ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslarni, zarur hollarda esa tarbiya muassasalarining vakillarini barcha materiallar bilan tanishtirib chiqadi, komissiya majlisiga kimlarni chaqirish kerakligini belgilab oladi hamda ish ko'rildigan vaqt va joyni aniqlaydi.

Komissiya majlisi bo'ladijan kun prokurorga ma'lum qilinadi.

Komissiyaning majlisi komissiya tarkibining yarmidan ko'pi hozir bo'lgan taqdirda haqiqiy deb hisoblanadi.

Komissiyaning majlisida ishi ko'rيلayotgan voyaga yetmagan shaxs, shuningdek, uning ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar, zarur hollarda esa o'quv-tarbiya muassasalarining vakillari bo'lishi shart.

Komissiya ish yuzasidan to'plangan materiallarni qarab chiqadi, voyaga etmagan shaxs, uning ota-onasi yoki ular o'mini bosuvchi shaxslarning, jabrlanuvchi va guvochlarning tushuntirishlarini tinglaydi, so'ngra ishning barcha holatlarini har tomonlama ko'rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

- 1) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash;
- 2) ishni to'xtatish;
- 3) ishni ko'rishni qoldirib, qo'shimcha tekshiruv o'tkazish;
- 4) ishni tergov yoki surishtiruv organlariga topshirish.

Komissiya majlisida bayonnomma yuritilib, unda majlis bo'lgan kun va joy, ko'rib chiqilayotgan ishning mazmuni, ishni ko'rishda qatnashayotgan shaxslarning majlisga kelgan-kelmaganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, ularning bergen izohlarining qisqacha mazmuni, ishga oid boshqa ma'lumotlar, shuningdek, qabul qilingan qaromi o'qib eshittirish va uning

ustidan shikoyat berish va muddatlarini tushuntirish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar ko‘rsatiladi. Bayonnomaga raislik qiluvchi va kotib imzo chekadilar

Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug‘ullanuvchi komissiya ishi ko‘rilayotgan shaxslarning ishlaydigan yoki yashaydigan joyida sayyor majlislar ham o‘tkazishi mumkin.

Komissiyaning qarorlari majlisda qatnashuvchi komissiya a‘zolarining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Komissiyaning qarori yozma shaklda bo‘lib, u dalillar bilan asoslangan bo‘lishi lozim.

Ta’sir ko‘rsatish choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi qarorda – komissiyaning nomi; ishni ko‘rib chiqish vaqt; ishi ko‘rib chiqilayotgan shaxs to‘g‘risidagi ma‘lumotlar; ishni qarab chiqish chog‘ida aniqlangan holatlar; qilingan huquqbazarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normativ akt va shu ish yuzasidan qabul qilingan hal qiluvchi qaror ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Komissiyaning qarori ustidan o‘zi haqida shu qaror chiqarilgan shaxs, shuningdek, jabrlanuvchi qaror chiqqan kundan boshlab 10 kun muddatda tegishli tuman (shahar) hokimiga shikoyat berishi mumkin. Hokimning mazkur shikoyat yuzasidan chiqaradigan qarori 15 kundan kechiktirmay qabul qilinishi lozim va u qat‘iydir.

Komissiyaning ma‘muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqargan qarori ustidan O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi kodeksida nazarda tutilgan tartibda shikoyat berilishi mumkin.

Komissiyaning qaroriga va shikoyat yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qaroriga prokuror protest bildirishi mumkin. Prokurorning protest bildirishi shu protest ko‘rib chiqilgunga qadar mazkur qarorming va shikoyat yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qarorining ijrosini to‘xtatib turadi.

VI bob. VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILGAN JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIK

Insonparvarlik va odillik prinsplaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi oltinchi bo'limi XV-XVI boblarida «Voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari» belgilangan. Bu boblarda voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jazo tizimi, jazo tayinlash qoidalari, javobgarlik yoki jazodan ozod qilish asoslari aks ettirilgan. Unda ko'rsatilgan normalar jinoiy javobgarlikning umumiy qoidalarini o'z ichiga olishi bilan birga, kodeksning 7-moddasida ko'rsatilgan insonparvarlik prinsipiiga muvofiq, voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilganida ularga nisbatan jazo turlarining birmuncha liberallashtirilganligi, sud ularga jazo tayinlashda o'smirning ruhiy rivojlanganlik darajasi, turmush sharoiti va tarbiyasini, sog'ligini, sodir etgan jinoyatining sabablarini, katta yoshdagи kishilar va vaziyatning jinoyat sodir etilishidagi o'rmini e'tiborga olib, javobgarlik yoki jazodan ozod qilishda unga nisbatan davlat tomonidan beriladigan bir qancha engilliklarda ifodalangan.

Jinoyat kodeksi 17-modasi, 5-qismiga muvofiq o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar jinoyat sodir etgan shaxslar umumiy qoidalarga asosan va Jinoyat kodesining oltinchi bo'limida nazarda tutilgan xususiyatlar hisobga olingan holda javobgarlikka tortiladilar.

Voyaga yetmagan shaxs deganda, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya va O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni (2008-yil 27-yanvar)ga muvofiq jinoyat sodir etgunga qadar 18 yoshga to'lman shaxs tushuniladi.

Umumiy qoidaga muvofiq, 16 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxslar jinoyat subyekti yoshiga yetgan hisoblanadilar.

Ba'zi jinoyatlar uchun subyekt yoshi 14 deb belgilangan. Javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ladirganlik jinoyati uchun subyekt yoshi 13 yosh etib belgilangan.

Voyaga yetmagan shaxslar uchun javobgarlikni belgilovchi normalar ikkiga bo'linadi:

1) jinoyat sodir etgunga qadar voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan normalar;

2) norma qo'llangunga qadar voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan majburlov choralar.

Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan normalar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ularni quyidagi ikki guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi guruh normalariga – jazo turi, jazo tayinlash, jazodan shartli ozod qilish, javobgarlik va sudlanganlik muddatini belgilovchi normalar.

Ikkinci guruh normalariga – jazoni o'tash kalloniysi turlarini belgilovchi, tarbiyaviy xususiyatdagi majburlov choralarini kiradi.

2001-yil 29-avgustda O'zbekistan Respublikasi Oliy Majlisini ikkinchi chaqiriq VI sessiyasida jinoiy jazolarini liberallashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar jazo sanksiyalarining yengillashuviga, jazo muddatlarining kamayishiga, ozodlikdan mahrum qilish, qamoq jazolarining kamroq belgilanishiga olib keldi. Jinoiy jazolar tizimidagi bunday islohotlar voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlashda muhim ahamiyatga ega.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llanadigan jazo tizimi, jinoyat qonuni bilan belgilangan va sud uchun majburiy hisoblagan jazo choralarning ro'yxati bo'lib, ular o'z navbatida muayyan tartibda joylashtirilgan va qo'llanish tartibi va chegaralari belgilangan ro'yxatdir.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llanadigan jazo tizimining asosiy vazifasi voyaga yetmaganlarni majburlash va tarbiyalash hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlashning asosiy maqsadi tarbiyalash bo‘lsada, lekin bu qoida og‘ir jinoyat sodir etganlarga nisbatan og‘ir jazo tayinlanishini istisno etmaydi. Bunday holatda og‘irroq jazo tayinlamaslik, voyaga yetmaganlarda ma’suliyatsizlikni keltirib chiqaradi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jazo tizimi:

1) davlat majburlov chorasing alohida turlaridan tashkil topgan;

2) jazo tizimi elementlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisiga bog‘lanib va to‘ldirib keladi;

3) davlatning majburlov choralar ro‘yxati qatiy bo‘lib, kengaytirib talqin qilinishi mumkin emas. Shuning uchun voyaga yetmaganlarga nisbatan Jinoyat kodeksi maxsus qismi tegishli moddasi sanksiyasida ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, lekin 84-moddada ko‘rsatilmagan jazo choralar qo‘llanilmaydi;

4) belgilangan jazo choralar engilidan og‘iriga qarab joylashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 81-moddasida ko‘rsatilgan jazolar voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanishi mumkin bo‘lgan jazo turlarining qatiy ro‘yxatidir. Ushbu moddada jazo tizimui eng yengilidan og‘iriga qarab joylashtirilgan, ya’ni:

- 1) jarima;
- 2) axloq tuzatish ishlari;
- 3) qamoq;
- 4) ozodlikdan mahrum qilish.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlashda Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddasi sanksiyasi doirasida emas, balki JK 82–85-moddalarda belgilangan doirada jazo tayinlanadi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo‘srimcha jazo chorasi qo‘llanilmaydi.

Endi voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jazo normalariga to‘xtalsak.

Jarima jazosi—voyaga yetmaganlarga nisbatan Jinoyat kodeksi 82-moddasiga muvofiq eng kam oylik ish haqining ikki barobaridan yigirma baravarigacha belgilanadi.

Sud voyaga yetmaganlarga nisbatan jarima jazosini tayinlashda jazoni qo'llash uchun asoslar bor yoki yo'qligi aniqlanishi lozim. Jarima jazosini tayinlashda voyaga yetmagan shaxsning mustaqil daromadga, ish haqi yoki mol-mulkka ega ekanligi e'tiborga olinadi. Jarima jazosi miqdorini belgilashda sud bu jazo miqdori voyaga yetmagan javobgarning normal yashashi uchun zarur bo'lgan sharoitdan mahrum qilib qo'ymasligi lozimligi e'tiborga olinishi kerak.

Axloq tuzatish ishlari — bu mahkumni sud hukmi bilan belgilangan muddatga majburiy mehnatga jalb qilib, uning ish haqidan davlat foydasiga muayyan miqdordagi foiz undirish tariqasidagi jazo chorasiadir.

Bu jazo voyaga yetmaganlarni mehnatga jalb qilish bilan tuzatish va qayta tarbiyalashga qaratilgandir.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan ahloq tuzatish ishlarini qo'llashning quyidagi shartlari mavjud:

- 1) subyektiv tarkibning qatiy cheklanganligi;
- 2) jazoni qo'llash muddati.

Ahloq tuzatish ishlari faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmagan, shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. *Mehnat layoqati* — bu shaxsning mehnat qila olish qobiliyatiga ega ekanlidir. Umumiyligida qoidaga ko'ra, shaxs 16 yoshga to'lgandan so'ng mehnatga layoqatli hisoblanadi. 16 yoshga to'limganlar quyidagi hollarda mehnat shartnomasi asosida mehnatga jalb qilinishi mumkin:

1) o'n besh yoshga to'lgan shaxslar ota-onasidan birini yoki ular o'mini bosuvchi shaxsning yozma roziligi bilan ishga qabul qilinishi;

2) yoshlarni mehnatga tayyorlash maqsadida umum ta'limga maktablari, hunar-texnika bilim yurtlari va o'rta maxsus o'quv yurtlarining o'quvchilarini o'n to'rt yoshga to'lganlardan keyin ota-onasidan birining yoki ular o'mini bosuvchi shaxsning roziligi bilan bolalarning sog'lig'iga ziyon yetkazmaydigan va ta'limga olish jarayonini buzmaydigan yengil ishlarni o'qishdan bo'sh vaqtlarida bajarish uchun ishga qabul qilinishiga yo'l qo'yiladi.

Jinoyat kodeksi 83-moddasiga muvofiq ahloq tuzatish ishlari faqat 16 yoshga to'lgan mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan bir oydan bir yilgacha muddatga tayinlanadi. Jazoni o'tash muddatiga dam olish, bayram, shuningdek, mahkumning kasal bo'lgan kunlari ham kiradi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan axloq tuzatish ishlarining o'ziga xosligi quyidagilarda ko'rindi:

– axloq tuzatish ishlariga xukm qilingan shaxs ish haqining bir qismi davlat budgetiga o'tkaziladi;

– axloq tuzatish ishlari tayinlangan shaxsning ishlagan vaqt mehnat stajiga kiritilmaydi.

– axloq tuzatish ishini o'tash davrida uzlusiz mehnat uchun beriladigan qo'shimcha ish haqi to'lanmaydi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llanadigan ahloq tuzatish jazosi jazoni o'tash joyiga ko'ra:

1) voyaga yetmagan mahkumning ish joyida;

2) jazoning ijrosini nazorat qiluvchi organ belgilab beradigan, lekin voyaga yetmagan mahkum yashaydigan joyda o'taladi.

Qoidaga ko'ra, voyaga yetmagan shaxsga axloq tuzatish ishini o'zi ishlab turgan joyda o'tashi belgilanadi. Voyaga etmagan mahkumni tarbiyalash nuqtai nazaridan axloq tuzatish ishini u ishlab turgan joyda o'tashni belgilash maqsadga muvofiqdir.

Agar aybdor hech qayerda ishlamasa, jazo ijrosini nazorat qiluvchi organ belgilab bergen lekin o'zi yashaydigan hududdagi boshqa joyda o'taladi va ish haqining o'n foizidan o'ttiz foizigacha davlat daromadiga ushlab qolinadi.

Ahloq tuzatish jazosi voyaga yetmagan mahkumning moddiy va mehnat manfaatlarni ma'lum darajada cheklab qo'yadi, mahkumning ish haqidan o'n foizidan o'ttiz foizigacha davlat daromadiga undiriladi, uzlusiz mehnat uchun beriladigan qo'shimcha ish haqi to'lash jazoni o'tash davrida to'xtaliladi.

Jinoyat protsessual kodeksining 545-moddasiga ko'ra axloq tuzatish ishlari o'talgan vaqtini mahkumning umumiyl mehnat stajiga qo'shish to'g'risidagi masala jamoat birlashmasi yoki

jamoat iltimosnomasi bo'yicha, jazoni o'tab chiqqan shaxs mehnatga qobiliyatsiz bo'lgan taqdirda esa, uning iltimosnomasi bo'yicha ham mazkur shaxs turgan joydagagi tuman yoki shahar sudining sudyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Axloq tuzatish ishlari o'talgan vaqtini mahkumning umumiyl mehnat stajiga qo'shish to'g'risidagi masala sud tomonidan ko'rib chiqilayotgan vaqtida iltimosnoma kim tomonidan berilgan bo'lsa, shu shaxsning, shuningdek, iltimos qilgan jamoat birlashmasi yoki jamoaning vakili qatnashishi shart.

Axloq tuzatish ishlari o'talgan vaqtini mahkumning umumiyl mehnat stajiga qo'shish to'g'risidagi iltimosnoma yuzasidan sudyasi chiqqagan ajrim ustidan shikoyat berilishi mumkin.

Qamoq jazosi Jinoyat kodeksiga kiritilgan yangi jazo turi hisoblanadi. Qamoq – shaxsni erkin hayotdan batamom ajratgan sharoitda saqlashdan iborat bo'lib, voyaga yetmaganlarga nisbatan bir oydan uch oygacha bo'lgan muddatga tayinlanadi.

Voyaga yetmagan hamda qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar jazoni qamoq uylarida o'taydilar. Ularga har kuni bir yarim soatlilik sayr qilish, bir oyda bir marta yaqin qarindoshlari bilan uch soatgacha qisqa muddatli uchrashuv imkoniyati beriladi. Ular qamoq uyining xo'jalik xizmatiga oid ishlarga haftasiga to'rt soatgacha jalb qilinishi mumkin. Voyaga yetmaganlar jazoni o'tash tartibini buzgan hollarda ogohlantirish, hayfsan, etti sutkagacha karserga kiritib qo'yish, har kungi sayrni bekor qilish kabi intizomiy jazo choralarini qo'llaniladi.

Jinoyat kodeksi 84-moddasiga muvofiq qamoq jinoyat sodir qilish vaqtida o'n olti yoshga to'lman lekin hukm chiqarish vaqtida o'n olti yoshga to'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanishi mumkin. Bu jazo turining asosiy xususiyatlaridan biri shaxsni yangi jinoyat sodir etishini oldini olishdir.

Ozodlikdan mahrum qilish voyaga yetmagan mahkumni sudning hukmida belgilangan muddatga shu jazoni maxsus o'tash joylariga joylashtirib majburiy tarzda jamiyatdan ajratishdan iborat.

Voyaga yetmay turib, ijtimoiy xavfi katta bo'limgan jinoyat sodir etgan, ehtiyyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etgan yoxud qasddan uncha og'ir bo'limgan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasida jazo tayinlanmaydi. Hukm chiqarish paytida o'n sakkiz yoshga to'limgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosini tarbiya koloniyalarda o'tash tayinlanadi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llanadigan jazoning asosiy maqsadi va vazifasi mahkumni tuzatish qayta tarbiyalash hamda jinoyatchilikning umumiyligi va maxsus oldini olishdan iboratdir. Voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilish ham yuqoridaq maqsadni ko'zlaydi.

Shaxsni javobgarlikdan ozod qilishda uning 18 yoshga to'limganligini aniqlash bilan birga, hukm chiqarish vaqtida yoshi ham aniqlanishi lozim. Agar hukm chiqarish vaqtiga kelib 18 yoshga to'lgan bo'lsa, uni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasi Jinoyat kodeksining 64–68-moddalariga asosan hal qilinishi kerak.

Jinoyatchini boshqa vosita bilan tuzatish mumkin, deb topilsa, uni jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilish, shuningdek, tayinlangan jazoning ma'lum bir qismini o'tagandan so'ng jazo muddati tugamasdanoq mahkumni jazodan ozod qilish mumkin.

Voyaga yetmagan shaxsni javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilishning quyidagi *maxsus turlari mavjud*:

1) voyaga yetmaganlarning ishlami voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyaga topshirish orqali javobgarlik yoki jazodan ozod qilish;

2) majburlov chorasi qo'llash orqali javobgarlik yoki jazodan ozod qilish.

Voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish orqali faqat ishni voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyaga topshirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunday qarorga kelish uchun Jinoyat kodeksi 87-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan shartlar:

1) jinoyat sodir etish vaqtida shaxsning 18 yoshga to'limganligi;

2) ijtimoiy xavfi katta bo'limgan jinoyatni birinchi marta sodir etgan bo'lishi;

3) sodir etilgan qilmishining xususiyatlari, aybdorning shaxsi va ishning boshqa holatlari mavjud bo'lishi lozim.

Yuqorida ko'rsatilgan uchta shartning hammasi bir vaqtning o'zida mavjud bo'lganida, voyaga yetmagan shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi.

Voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiya voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan quyidagi ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llashi mumkin:

- voyaga yetmaganga jabrlanuvchidan uzr so'rash majburiyatini yuklash to'g'risida tuman (shahar) sudiga taqdimnomalarini kiritishi;

- ogohlantirib qo'yishi;

- 15 yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs zimmasiga, agar u mustaqil ish haqiga ega bo'lsa va zarar miqdori belgilangan eng kam oylik ish haqidan ortiq bo'lmasa, moddiy zararning o'rnini qoplash yoki uni bartaraf etish majburiyatini yuklashi yoki belgilangan eng kam oylik ish haqidan ortiq bo'limgan moddiy zararni o'z mehnati bilan qoplash majburiyatini yuklashi;

- 16 yoshga to'lgan va mustaqil ish haqiga ega bo'lgan voyaga yetmagan shaxsga O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida, Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat hokimiyati va boshqaruving oliy organlari chiqargan hujjatda, viloyatlar va Toshkent shahar davlat boshqaruvi organlari qarorlarida ko'zda tutilgan hollarda va miqdorlarda jarima solishi;

- voyaga yetmagan shaxsni o'z ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar yoxud jamoat tarbiyachilari nazoratiga, shuningdek, ularning roziligi bilan mehnat jamoasi yoki jamoat tashkiloti kuzatuviga topshirishi;

Har bir aniq holat bo'yicha qabul qilingan ta'sir choralarini to'g'risida komissiyalar voyaga yetmaganning yashash, o'qish yoki ish joyi bo'yicha huquqni buzishning oldini olish bo'linmalari tomonidan voyaga yetmaganlarning huquqbuzarligining oldini olish ishlarini ta'minlash uchun ichki ishlar

organlarining tegishli hududiy organlarini xabardor qilishga majburdir. Ta'sir ko'rsatish choralar qo'llanilayotganida tuman (shahar) komissiyasi huquqbuzarlik holatining xususiyatini va sabablarini, voyaga yetmagan shaxsning yoshini va uning hayot tarzi, oilaviy sharoitlarini, uning huquqbuzarlik qilishda qay darajada ishtirok etganligini, shuningdek, uning turmushdagi, mактабдаги va ishdagi xulq-atvorini, albatta, hisobga olishi lozim.

Komissiyaning voyaga yetmaganlar shaxsini ogohlantirish to'g'risidagi qarori bir yil mobaynida amal qiladi. Basharti ta'sir ko'rsatish chorasi qo'llanilgan voyaga yetmagan shaxs ana shu muddat ichida yangi huquqbuzarlik sodir etmasa, ta'sir ko'rsatish chorasi tugallangan, deb hisoblanadi. Ta'sir ko'rsatish chorasini qo'llagan komissiya o'z qaroriga binoan, basharti ana shunday ta'sir ko'rsatish chorasi qo'llanilgan voyaga etmagan shaxs namunali axloqi bilan o'zining tuzalganligini ko'rsatgan taqdirda, jazoni bir yil o'tmasdan ham olib tashlashi mumkin.

Komissiyaning voyaga yetmagan shaxsni o'z ota-onasi, ular o'rnini bosuvchi shaxslar yoki jamoat tarbiyachilar nazoratiga yoxud mehnat jamoasi, jamoat tashkiloti kuzatuviga topshirish to'g'risidagi qarorining amal qilish muddati, basharti voyaga yetmagan shaxs o'zining namunali axloqi va ishga hamda o'qishga bo'lgan halol munosabati bilan o'zining tuzalganligini isbot etsa, mazkur shaxslar yoki tashkilotlar iltimosiga binoan istalgan vaqtدا bekor etilishi mumkin.

16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar mustaqil ish haqiga ega bo'lmasa, jarima ularning ota-onalaridan yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslardan undirilishi mumkin.

Komissiyaning qarori bilan solingen jarima Xalq banki muassasasiga to'lanadi.

Jarima muddatida to'lanmagan taqdirda, komissiyaning jarima solish to'g'risidagi qarori jarima summasini fuqarolik-protsessual qonunchiligi bilan belgilangan qoidalarga muvosiq shunday jarima solingen shaxsning ish haqidan yoki boshqa maoshidan, nafaqa yoki stipendiyasidan majburiy tartibda ushlab qolish uchun yuboriladi.

Basharti jarima solingen shaxs ishlamayotgan bo'lsa yoki solingen jarimani boshqa sabablarga ko'ra uning ish haqidan yoki boshqa maoshidan, nafaqa yoki stipendiyasidan undirib olishning iloji bo'lmasa, jarima komissiyaning qarori asosida undiruvni huquqbuzarning shaxsiy mol-mulkiga, shuningdek, umumiy mulkdagi uning ulushiga qaratish yo'li bilan tuman (shahar) sudi sud ijrochisi tomonidan undiriladi.

Tarbiya koloniyasidan ozod bo'lib qaytgan voyaga yetmagan shaxs istiqomat qilayotgan joydagi komissiya mazkur shaxs 18 yoshga yetgunga qadar uni ishga yoki o'qishga joylashtirish choralarini ko'radi va uning axloqini nazorat qilib boradi.

Ozod bo'lgan voyaga yetmagan shaxsning o'z ota-onasi yoki ular o'mini bosuvchi shaxslar huzuriga qaytishiga ularning yo'qligi yoxud ota-onalik huquqidan yo vasiylik huquqidan mahrum etilganligi munosabati bilan imkon bo'lmasa, ozod bo'lgan ana shu voyaga yetmagan shaxsning ilgari yashab kelgan joyidagi komissiya koloniya ma'muriyatining taqdimi bilan uni ixtisosiga muvofiq keladigan ishga yoki o'qishga joylashtirish, shuningdek unga tegishli uy-joy bilan ta'minlash va maishiy sharoitlar yaratib berish choralarini ko'radi.

Tarbiya koloniyasidan ozod bo'lgan voyaga yetmagan shaxsni tarbiyasi nuqtai-nazaridan ilgarigi istiqomat joyiga yuborish maqsadga muvofiq emas, deb topilgan favqulodda hollarda uni ishga joylashtirish koloniya ma'muriyatining taqdimi bilan shu tarbiya koloniyasi joylashgan komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Komissiya koloniyadan ozod bo'lgan voyaga yetmagan shaxsni u yordam so'rab murojaat qilgan kundan boshlab 10 kun muddatdan kechiktirmay ishga yoki o'qishga joylashtirish masalasini hal qilishi shart.¹

Majburlov choralarini qo'llagan holda jinoiy jazodan ozod qilish faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. Majburlov chorasi qo'lash uchun quyidagi shartlar mavjud bo'lishi kerak:

¹ Vazirlar Mahkamasining «Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya faoliyatini takomillashtirish haqida» 2000-yil 21-sentabrdagi 360-soni qarorining 23-bandini.

1) jinoyat sodir etish vaqtida shaxsning 18 yoshga to'lmaganligi;

2) uncha og'ir bo'lmanan jinoyatni birinchi marta yoki ijtimoiy xavfi katta bo'lmanan jinoyatni takroran sodir etgan bo'lsa;

3) shaxsni jazo chorasi qo'llamasdan turib tarbiyalash mumkin bo'lsa;

4) o'z yoshiga nisbatan rivojlanish darajasi ancha orqada qolgan bo'lsa va o'z qilmishining xususiyatini anglab etmagan bo'lsa.

Sud voyaga yetmagan shaxsning aqliy rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida sud-psixatrik ekspertizasini tayinlaydi va ekspertiza xulosasiga muvofiq jinoi jazodan majburlov choralarini qo'llash orqali ozod qilish masalasini xal qiladi.

Majburlov choralarini qo'llab, jazodan ozod qilishda sud yuqoridagi shartlardan tashqari aybdorning shaxsi, jinoyatning xususiyati (vaqt, joyi, sharoiti, usuli, aybning shakli, jinoyatning motiv va maqsadi, yetkazilgan zararning miqdori)ni e'tiborga olishi mumkin.

Voyaga yetmaganlarni jazodan ozod qilish ularni jinoi javobgarlikdan ozod qilishga o'xshasada, undan farq qiluvchi qatiy talab va chegaralarga ega. Voyaga yetmagan shaxsni faqat sud tomonidan;

1) voyaga yetmagan shaxs birinchi marta ijtimoiy xavfi katta yoki uncha og'ir bo'lmanan jinoyat sodir etgan bo'lsa;

2) tarbiyaviy xususiyatdagi majburlov chorasi qo'llash bilan jazodan ozod qilinadi.

Voyaga yetmagan shaxsni jazodan ozod qilish sud tomonidan shaxsni aydor, deb topish orqali hukmda jazo tayinlamasdan amalga oshriladi, ammo majburlov chorasi belgilanadi.

O'z xususiyatiga ko'ra **majburlov choralari** tarbiyaviy xususiyatga ega. Sud majburlov chorasi qo'llaganda tarbiyalash maqsadini ko'zlashi lozim. Shu bilan birga sud tomonidan qo'llanilayotgan ushbu chora majburlov xususiyatiga ega. Bu majburlov chorasing faqat sud tomonidan qo'llanishga va

voyaga yetmagan shaxsnинг yoki uning qonuniy vakilining ixtiyoriga bogliq bo'lmanan holda ijro etilishida ifodalananadi. Bu ta'sir chorasingning ijrosi davlat hokimiyati organlari tomonidan ta'minlanadi. Shunday qilib majburlov chorasi tuzilishiga ko'ra tarbiyaviy xususiyatga ega bo'lsa, ijro etilishiga ko'ra majburiy xususiyatga ega.

Majburlov choralarini tuzilishiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Har bir ta'sir chorasi voyaga yetmaganlarni tarbiyalashda o'z xususiyatiga ega. Jinoyat kodeksi 88-moddasiga muvosiq majburlov chorasingning quyidagi turlari mavjud:

1) sud belgilaydigan tartibda aybdor jabrlanuvchidan uzr so'rash majburiyatini yuklash. Bu majburlov chorasi jabrlanuvchi oldida sud belgilagan tartibda, sud majlisida, ish joyida, ta'lim muassasasi yoki jabrlanuvchi yoxud aybdorning yashash joyida amalga oshiriladi. Sud belgilagan hollarda yozma shaklda ham uzr so'rashi mumkin. Uzr so'rash og'zaki yoki yozma tartibda, shuningdek, yakka tartibda ham amalga oshirilishi mumkin;

2) yetkazilgan zarar miqdorini qoplash majburiyatini yuklash. Zararni qoplash o'z mablag'i hisobidan yoki mehnat qilish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu majburlov chorasini amalga oshirish tartibi va muddati sud tomonidan belgilanadi. Ushbu ta'sir chorasini qo'llash quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin.:

a) voyaga yetmagan shaxs 16 yoshga to'lgan bo'lsa;

b) yetkazilgan zarar miqdori eng kam oylik ish haqining o'n barobaridan yuqori bo'lmasa, uni qoplash majburiyatini yuklatiladi. Boshqa hollarda zarar fuqarolik sudiga da'vo qo'zg'atish orqali undiriladi. Bu majburlov chorasingning jarima jazosidan farqi quyidagilarda ko'rindi:

birinchidan, ta'sir chorasi sifatida yetkazilgan zarar miqdorini qoplash yuklatiladi, jarima jazo sifatida taynlanadi;

ikkinchidan, to'lanadigan qiymat jabrlanuvchi foydasiga undiriladi, jarima esa davlat budgetiga undiriladi;

uchinchidan, zarar miqdori eng kam oylik ish haqining o'n barobaridan oshmasa, sud tomonidan, agar undan ortiq bo'lsa, fuqarolik sudi tomonidan undiriladi, jarima esa jinoyat ishlari

bo'yicha sud tomonidan tayinlanadi;

3) voyaga yetmagan shaxsni maxsus o'quv tarbiya muassasasiga joylashtirish. Voyaga yetmagan shaxsni maxsus o'quv tarbiya muassasalarida bo'lish muddati va shartlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi.

Yopiq turdag'i maxsus o'quv-tarbiya muassasasida tarbiyalashning alohida usullari qo'llaniladi. Bu ancha qattiq majburlov chorasi bo'lib, tarbiyasi og'ir va maxsus sharoitdag'i pedagogik ta'sir choralarini tatbiq etilishi shart bo'lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladi. Maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga qattiq pedagogik rejim va maxsus tarbiya sharoitida tarbiyalanishi shart bo'lgan voyaga yetmaganlar joylashtiriladi. Voyaga yetmagan shaxslarning maxsus o'quv-tarbiya muassasalarida bo'lishi tartibi va sharoiti, o'quv jarayoni va tarbiyaviy ta'sirga oid ishni tashkil qilish O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi.¹

Maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish jazo chorasi hisoblanmaydi, chunki:

birinchidan, jazo choralarini tizimida ko'rsatib o'tilmagan;

ikkinchidan, bunday muassasada bo'lish muddati sud tomonidan belgilanmaydi;

uchinchidan, sudlanganlik oqibatlari tatbiq etilmaydi.

Voyaga yetmaganlarning maxsus o'quv tarbiya muassasasida bo'lish muddati sodir etilgan jinoyati uchun belgilanadigan jazoning maksimal muddatidan oshmasligi kerak. Davlat organining voyaga yetmaganning tarbiyalanishi maxsus o'quv tarbiya muassasasida davom ettirilishi shart emas, degan xulosaga muvofiq, aybdorning maxsus o'quv tarbiya muassasasida bo'lishi belgilangan muddatidan oldin tugatilishi mumkin. Voyaga yetmaganning uzoq muddat maxsus o'quv tarbiya muassasasida bo'lishi uning keyinchalik erkinlikda normal hayot kechirishini qiyinlashtiradi, uning ijtimoiy ongini pasaytiradi, jamiyat bilan o'zaro munosabatini uzib qo'yadi. Shuning uchun ham majburlov choralarini qonunda ko'rsatilgan

¹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksi, 197-modda, 2-qism. 1997-yil 25-aprel kuni qabul qilingan.

alohida hollarda qo'llanishi mumkin.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov chorasi qo'llab jazodan ozod qilish, ularda jinoyat uchun jazodan ozod bo'lish mumkin, degan fikrni keltirib chiqarmasligi lozim.

Qonunda jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxslarni jazoni o'tashdan muddatidan oldin shartli ravishda jazodan ozod qilishning shartlari belgilangan (JK 89-moddasi).

Sud tomonidan tayinlanadigan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish mahkumlarning mehnatga halol munosabatda bo'lishi, qonunlarni aniq bajarishi, ularni turmush qoidalarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash va qayta tarbiyalanishi uchun muhim omildir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 89-moddasida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish asoslari ko'rsatilgan:

1) jinoyat subyektining 18 yoshga to'limganligi;

2) sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan bo'lishi;

3) jazoni o'tash tartib qoidalariga rioya qilganligi;

4) mehnat va o'qishga halol munosabatda bo'lganligi;

5) shuningdek:

– ijtimoiy xavfi katta bo'limgan yoki uncha og'ir bo'limgan jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida to'rtdan bir qismi;

– og'ir jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismi;

– o'ta og'ir jinoyat uchun, shuningdek, qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm etilgan bo'lsa, tayinlangan jazo muddatining kamida yarmini haqiqatda o'tab bo'lgan bo'lsa, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish qo'llaniladi.

O'n sakkiz yoshga to'lmasdan turib sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish yoki ahloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxsga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish qo'llanishi mumkin. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish qo'llanilagan shaxs jazoning o'talmagan qismi mobaynida

qasddan yangi jinoyat sodir etsa, bir necha hukm yuzasidan (Jinoyat kodeksi 60-modda) va 86-moddada belgilangan voyaga yetmaganlarga jazo tayinlashning umumiy qoidalariga asoslangan holda jazoga tortiladi.

Jazodan shartli ravishda ozod qilish quyidagi xususiyatga ega:

- 1) shaxsni ijtimoiy hayotga moslashishiga imkon beradi;
- 2) qayta jinoyat sodir qilmasligi uchun nazorat qilinishini ta'minlaydi;
- 3) jazoni o'tash muassasasidagi salbiy ta'sirni yo'qotadi¹.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish sudning hukmiga ko'ra tayinlangan jazo turining qolgan qismini yengilroq turdag'i jazo bilan almashtirib jazodan ozod qilishdan iborat.

Jinoyat kodeksi 90-moddasining mazmuniga ko'ra ushbu modda faqat jinoyat sodir etgan vaqtida o'n sakkiz yoshga to'limgan, tuzalish yo'liga qat'iy o'tib olgan va endi ushbu jazo turini o'tashi maqsadga muvofiq emas, balki uni tarbiyalash jarayonini boshqa engilroq turdag'i jazo bilan almashtirib davom ettirish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelinganida qo'llaniladi. Ushbu moddaga muvofiq o'n sakkiz yoshga to'lguncha sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishiga hukm qilingan shaxsga nisbatan jazoning o'talmagan qismi yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin.

Yengilroq jazo bilan almashtirish deganda, hukm bo'yicha tayinlangan bir turdag'i jazoning qolgan qismini, o'sha jazoga nisbatan boshqa yengilroq turdag'i jazo bilan almashtirish tushiniladi. Bir turdag'i jazo shu turdag'i jazoning kamroq qismi bilan almashtirilishi mumkin emas.

Jinoyat kodeksi 81-moddasida belgilanishicha, 18 yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga quyidagi asosiy jazo turlari qullaniladi:

- 1) jarima;

¹ Условно досрочное освобождение и другие виды условного освобождения. 2000 г. С.4.

2) axloq tuzatish ishlari;

3) qamoq;

4) ozodlikdan mahrum qilish.

Ushbu moddaga ko'ra axloq tuzatish ishlaridan yengilroq bo'lgan jazo – jarima hisoblanadi. Ammo axloq tuzatish ishi sud hukmida belgilangan muddat mobaynida jarayon sifatida o'taladi. Jarima esa alohida jazo turi hisoblanadi. Lekin jinoyat qonuniga muvofiq axloq tuzatish ishlarining qolgan qismi jarima jazosi bilan almashtirilishi mumkin.

Jazoning o'talmagan qismini yengilrog'i bilan almashtirish:

1) ijtimoiy xavfi katta bo'limgan yoki uncha og'ir bo'limgan jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida beshidan bir qismi;

2) og'ir jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida to'rtdan bir qismi;

3) o'ta og'ir jinoyat uchun, shuningdek, qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilib, tayinlangan jazo muddatning kamida uchdan bir qismini o'tab bo'lganidan keyin qo'llanishi mumkin.

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoning o'talmagan qismi axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilganda, axloq tuzatish ishlari ozodlikdan mahrum qilish jazosining o'talmagan qismi muddatiga tayinlanadi. Jazo yengilrog'i bilan almashtirilganda shaxs jazoning o'talmagan qismi mobaynida yangi jinoyat sodir etsa, sud unga nisbatan bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlaydi va 86-moddada belgilangan jazo tayinlash qoidalariga amal qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. I.A.Karimov. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir. //Xalq so'zi. 2007-yil 8-dekabr.
3. I.A. Karimov. O'zbekiston siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy istiqbollining asosiy tamoyillari. –T.: «O'zbekiston», 1997. -137 b.
4. I.A.Karimov. O'zbekiston bozor munosabatlariiga o'tishning o'ziga xos yo'li. –T.: «O'zbekiston». 1993. – 72 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, №2, 80-modda.
6. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-yil, №1-2, 1-modda.
7. Balog'atga yetmagan bolalar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar. -T., 2002. -232 b.

MUNDARIJA

SO'Z BOSHI.....	3
<i>I bob.</i> Fuqarolik qonunchiligi va Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasida voyaga yetmaganlar huquq va muomala layoqatining o'ziga hos jihatlari.....	8
<i>II bob.</i> Voyaga yetmaganlarning mehnat qilish huquqi va uni amalgalashish.....	17
<i>III bob.</i> Oilaviy munosabatlarda voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish masalalari Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasida aks etishi.....	28
<i>IV bob.</i> Voyaga yetmaganlarning tadbirkorlik faoliyatidagi ish.tiroki.....	37
<i>V bob.</i> Voyaga yetmaganlar huquqbazarligi va ularning ma'muriy javobgarligi.....	51
<i>VI bob.</i> Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlik.....	75
Foydalanimanligi adabiyotlar.....	91

QAYDLAR UCHUN

VOYAGA YETMAGANLARNING HUQUQLARI, MAJBURIYATLARI VA JAVOBGARLIGI

(O‘quv qo‘llanma)

Toshkent – «Aloqachi» – 2010

Muharrir:

M.Mirkomilov

Tex. muharrir:

A.Moydinov

Musahhih:

M.Hayitova

Sahifalovchi:

Sh.Mirqosimova

«Aloqachi»nashriyoti 100000, Toshkent sh.,
A.Temur ko‘chasi, 108-uy.

Bosishga ruxsat etildi 30.09.2010. Bichimi 60x84 1/16.
«Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 6,5. Nashriyot bosma tabog‘i 6,0.
Tiraji 500. Buyurtma 146.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.
100003, Toshkent shahri, Olmazor ko‘chasi, 171-uy.